

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 10-iyun chorshanba №23(9608)



Jahon chempionati – 2026:

OLG'A O'ZBEKISTON!

34 yil... Bir qarashda kichkina raqam. Bu vaqt oralig'ida ona zamin Quyosh atrofida 34 martagina aylanadi. Milliardlar-cha yildirki ayni harakatni amalga oshirayotgan Yerimiz uchun bu arzimagan gap. Ammo biz insonlar uchun umrning salkam yarmi degani. 34 yil avval beshikda tamshanib yotgan go'dakning hozir maktabga borayotgan bolasi bor. Qancha qorlar yoqqan, qancha suvlar oqqan.

Biz futbol bo'yicha milliy terma jamoamizning Jahon chempionatiga chiqishini shu qadar uzoq kutdik. Yettidan yetmishgacha men o'zbekman degan, shu yurt tuprog'ida yashagan biror odam yo'qki, bu kunni orzu qilmagan bo'lsa. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, milliy jamoamiz mundial saralashlarida ishtirok etishni boshlaganidan buyon barchamizning istagimiz futbolchilarni Jahon chempionatida ko'rish edi. Afsuski, bu istak ha deganda amalga oshavermadi. 1998, 2002, 2006, 2010, 2014, 2018, 2022...

Shu paytgacha kechgan mundial saralashlari har doim biz uchun alamli yakunlangan. Har safar jahon chempionati ostonasiga bir qadam qolganda omad bizdan yuz o'g'irgan. Ba'zan birgina to'p, ba'zan bir ochko, ba'zan esa

hakamlarning "kichkinagina" xatosi orzumizga to'g'anoq bo'lavergan. Ammo millionlarning duosi besamar ketmadi. Nihoyat biz AQSH, Kanada va Meksika mezbonlik qiladigan bu yilgi Jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdik. Bir necha kundan so'ng, milliy terma jamoamiz – "oq bo'rilar" mundialda o'z ishtirokini boshlaydi. Bu biz uchun katta faxr, ulkan baxt! Quvonchimizni so'z bilan ta'riflash mushkul.

Futboldagi bu ulkan muvaffaqiyat ortida faqatgina futbolchilarning mashaqqatli mehnati emas, balki davlatimiz tomonidan sohaga qaratilgan doimiy e'tibor ham yotadi. Bugun bu e'tibor nafaqat futbolda, balki sportning barcha turlarida o'z samarasini bermog'da. Sportchilarimiz Olimpiya o'yinlarida medallar jamg'arishda yetakchi-

lardan, boks, dzyudo, og'ir atletika va shaxmatdagi yutuqlarimiz butun olamga ma'lum.

Futbol bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar barchamizning ko'z o'ngimizda ro'y bermoqda. Katta shaharlardan tortib chekka hududlar-gacha futbol maktablari tashkil etildi, infratuzilma yangilandi, zamonaviy stadionlar va mashg'ulot bazalari qurildi. Futbol akademiyalarining faoliyati xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yildi, xorijiy tajriba keng joriy etildi. O'zbekiston futbolining xalqaro maydondagi nufuzi ortib, mamlakatimiz katta musobaqalarga mezbonlik qila boshladi. Bularning barchasi futbolimiz yangi bosqichga ko'tarilganining yaqqol dalilidir.

So'nggi yillarda birgina futbolni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi tomonidan yigirmaga yaqin farmon va qarorlar qabul qilingan.

Prezidentimizning 2017-yil 21-avgustdagi "Paxtakor" futbol klubining moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida";

2018-yil 16-martdagi "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida";

2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida";

2023-yil 3-noyabrdagi "Futbol ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida";

2024-yil 20-martdagi "Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida";

2025-yil 21-avgustdagi "O'zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida";

2025-yil 15-dekabrda "2027-yilgi futbol bo'yicha U-20 Jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va 2019-yil 4-dekabrda qabul qilingan "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni shular jumlasidan.

(Davomi 16-betda).



Xorijiy davlatlarda olingan

ilmiy darajalarni tan olishning yangi tartibi, mazmun-mohiyati, yangilik va afzalliklari nimada?

Bugun yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish borasida uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim va ilm-fan sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro akademik integratsiyani kuchaytirish borasidagi izchil islohotlar o'z samarasini bermoqda. Bunda, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohaslarini ham o'zaro integratsiya qilgan holda davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar e'tiborlidir. Ana shunday muhim qadamlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-apreldagi "Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti" tasdiqlandi. Mazkur hujjat xorijiy mamlakatlarda falsafa doktori(PhD), fan doktori(DSc) va ularga tenglashtirilgan ilmiy darajalarni olgan shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash, davlat xizmatlarini soddalashtirish va jarayonlarni raqamlashtirishga qaratilgan. Yangi reglamentning asosiy vazifasi xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalarni tan olish jarayonini shaffof, raqamli va yagona mexanizm asosida tashkil etishdan iborat. Jarayonda davlat xizmati to'liq raqamlashtirildi; murojaatlarni onlayn qabul qilish yo'lga qo'yildi; hujjatlarni ko'rib chiqish bosqichlari aniq belgilandi; talabgorlarning huquqlari kafolatlandi; qarorlar yuzasidan apellyatsiya berish mexanizmi takomillashtirildi.

Avvalgi tartib qanday edi?

Xorijiy mamlakatlarda falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) va ularga tenglashtirilgan ilmiy darajalarni nostrifikatsiya qilish yuzasidan murojaat qilingandan so'ng hujjatlar o'rganilishi holatini onlayn kuzatish imkoniyati cheklangani talabgorlarda ko'plab savollarni yuzaga keltirgani rost. "Hujjatlarimda kamchilik yo'qmikan?", "yana qanday talablar qo'yilishi mumkin?", "qachon tasdiqlanadi?", "tasdiqlanmasa qayta murojaat qilish mumkinmi?" kabi savollar ochiq qolgani bois, qaror qabul qilish jarayonlari aholi uchun yetarli darajada shaffof emasdi. Murojaatchilar uchun qulay elektron xizmatlar ko'rsatish tizimi faoliyati to'liq yo'lga qo'yilmagani esa yana ortiqcha tashvish tug'dirgani tabiiy. Natijada ayrim holatlarda hujjatlarni taqdim etish, ularning ko'rib chiqilishini kuza-tish va natijani olish jarayoni ortiqcha vaqt va tashkiliy xarajatlarni talab qilardi...

Yangiliklar va afzalliklar nimada?

Bugun yurtimizning barcha tuman, shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan Davlat xizmatlari markazlari orqali tegishli hujjatingizni ham nostrifikatsiyalash bo'yicha xizmat ko'rsatish mexanizmi to'liq shakllandi. Eng muhim yangiliklardan biri xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar to'g'risidagi hujjatni nostrifikatsiyadan o'tkazish xizmatining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilishi hisoblanadi. Endilikda talabgor uyidan chiqmagan holda mazkur masala bo'yicha davlat idorasiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishiga imkoniyat yaratildi. Bunda talabgor hujjatlarini elektron shaklda yuborishi; ko'rib chiqish jarayonini onlayn kuzatishi; qabul qilingan qarorni elektron shaklda olishi mumkin. Bu davlat xizmatlarini inson omilidan xoli qilish va ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. Ikkinchidan, murojaatchilar uchun qulayliklar kengaydi. Endi yangi tartibga muvofiq murojaatchi davlat xizmatlari markazi orqali yoki mustaqil ravishda YIDXP orqali hujjatlarini nostrifikatsiyalash yuzasidan murojaat qilishi mumkin. Ahamiyatlisi, bunda mamlakatning istalgan hududida yashovchi shaxslarga teng imkoniyat yaratiladi. Yana bir muhim jihat, yangi tartibga ko'ra, ortiqcha hujjat talab qilish taqiqlandi. Ya'ni, Reglamentda talab qilinadigan hujjatlar aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur ro'yxatdan tashqari ma'lumot yoki hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi. Bu esa korrupsiyaviy omillarni kamaytirishga xizmat qilishi tabiiy. Mazkur jarayonda xizmat ko'rsatish muddatlarining aniq belgilangani ham ahamiyatlidir. Yangi tartibda har bir bosqich uchun muayyan muddatlar ko'rsatilgan. Jumladan, hujjatlarni tekshirish, tashqi tasdiqlash ishlari, ekspert xulosasini tayyorlash va qaror qabul qilish jarayonlari uchun aniq vaqt chegaralari o'rnatildi. Bu murojaatchilarning aniq muddat bo'yicha huquqiy talabini kafolatlaydi. Yangi Reglamentga ko'ra, tegishli talablarga muvofiq olingan ilmiy daraja to'g'risidagi diplomlarni to'g'ridan to'g'ri tan olish instituti ham kengaydi. Bunda eng muhim afzalliklardan biri ayrim holatlarda ilmiy darajalarni ekspertizasiz tan olish mexanizmi aniq belgilandi. Xususan, xalqaro reytinglarda 300-o'ringacha bo'lgan nufuzli universitetlar; davlat dasturlari asosida xorijda tahsil olganlar; "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali o'qiganlar uchun soddalashtirilgan

tartib joriy qilindi. Bu ilmiy kadrlarning mamlakatga qaytishi va o'z faoliyatini tez boshlashini ta'minlashga xizmat qilayotgani bilan yanada ahamiyatlidir. O'z o'rinda ta'kidlash joizki, avvalgi amaliyotda asosiy e'tibor qog'oz hujjatlarga qaratilgan bo'lsa, endi tan olish to'g'risidagi guvohnomaning elektron shakli ham rasmiy yuridik kuchga ega bo'ldi. Bu holat hujjat yo'qolishining oldini olish, tekshirish jarayonlarini yengillashtirish, elektron hukumat tizimi bilan integratsiyani ta'minlamoqda. Yangi tartibga ko'ra, murojaatchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida aniq apellyatsiya tartibi belgilangani ham alohida e'tirofga loyiq. Endi talabgor hujjatlari qaysidir bosqichda tushunarsiz sabablarga ko'ra ko'rilmaganda ikki oy ichida apellyatsiya berishi, mustaqil Apellyatsiya komissiyasi tashkil etilishini talab qilishi mumkin bo'ldi. Shunda ham e'tirozlar yuzaga kelsa, ish sud tartibida ko'rib chiqilishiga huquqiy asoslar yaratildi. Ushbu tartib-qoidalar qarorlarning adolatli qabul qilinishiga xizmat qiladi. Inson kapitali harakatchanligiga rag'bat kuchaydi. Mazkur qaror bir vaqtning o'zida bir nechta strategik vazifalarni hal qiladi. Birinchi navbatda, u O'zbekistonning xalqaro akademik makonga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. Ya'ni, hozir xorijda ta'lim olgan olimlar o'z ilmiy salohiyatini mamlakat rivojiga tezroq yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ikkinchidan, raqamlashtirish hisobiga davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligi oshadi. Eng muhimi, ilm-fanga qiziquvchi yoshlarda xalqaro reytinglarda yuqori o'rinda turgan universitetlarda tahsil olishga ehtiyoj kuchayadi, chunki bunday muassasalarda olingan ilmiy darajalar to'g'ridan to'g'ri tan olinishi belgilandi. Bu bilan ilm-fan sohasida inson kapitali harakatchanligi rag'batlantirilishi va mamlakatning intellektual salohiyati yuksalishiga sharoit yaratildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Vazirlar Mahkamasi-ni 2026-yil 9-apreldagi "Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning Ma'muriy reglamenti" qarori xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalarni tan olish tizimini yangi bosqichga olib chiqqan muhim normativ-huquqiy hujjat bo'ldi. Avvalgi tartib bilan solishtirganda mazkur reglamentning asosiy ustunliklari sifatida davlat xizmatining raqamlashtirilgani, murojaatchilar uchun qulay mexanizmlar yaratilgani, ortiqcha byurokratik talablar qisqartirilgani, muddatlarning aniq belgilangani, to'g'ridan to'g'ri tan olish institutining rivojlantirilgani va apellyatsiya mexanizmlarining takomillashtirilganini qayd etish mumkin. Ushbu yangiliklar nafaqat xorijda ilmiy daraja olgan mutaxassislar manfaatlarini himoya qiladi, balki mamlakatning ilm-fan sohasidagi xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qilishi shubhasiz.

OAK Axborot xizmati

Jarayon

Ishxonada baraka bo'lsin desangiz...

Dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda ushbu illatning oldini olish, uning sabab va omillarini bartaraf etish hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini keng joriy etish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bugungi kunning muhim vazifalaridan etib belgilanmoqda. Ana shunday vazifalar ijrosi doirasida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida ham korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va faoliyat shaffofligini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilayotir.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy bazani mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyati borasidagi hamda boshqa ich-

ki hujjatlar mazmun-mohiyati barcha xodimlarga muntazam ravishda yetkazib borilmoqda. Korrupsiyaga oid holatlar haqida tezkor xabar berish imkoniyatlarini yaratish maqsadida institutda "Ishonch telefoni", elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt hamda maxsus telegram-bot faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur aloqa kanallari fuqarolar va xodimlarning murojaatlarini qabul qilish hamda ularga tezkor munosabat bildirish imkonini bermoqda. Jumladan, 2025- va 2026-yilning birinchi choragi davomida institutga ishga kirish uchun hujjat topshirgan 301 nafar nomzodning ma'lumotlari qonunchilik talablariga muvofiqligi, manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli va boshqa omillar sinchkovlik bilan tahlil qilindi, tegishli xulosalar tayyorlandi. Shu bilan birga, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati-

ni xodimlarga tushuntirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlari olib borildi. Natijada 570 nafar xodim tomonidan taqdim etilgan deklaratsiyalar o'rganilib, lavozimga moslik va qonunchilikda belgilangan cheklavlarga rioya etilishi yuzasidan tahlillar amalga oshirildi.

Institut faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari ham korrupsiyaning oldini olishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Menejerlik o'quv kurslari, malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga qabul qilish, o'qitish hamda yakuniy test sinovlari ochiq va shaffof tamoyillar asosida tashkil etilib, bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Natijada inson omilining ta'siri minimallashtirilib, korrupsiyaviy xavflar sezilarli darajada qisqarmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda profilaktik tadbirlarning o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda muntazam profilaktika tadbirlari tashkil etilmoqda. Malaka oshirish yo'nalishida ham muhim natijalarga erishildi. Institutning 32 nafar rahbar va

boshqaruv xodimi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" platformasida o'qitildi. Ulardan 20 nafari kurslarni muvaffaqiyatli yakunlab, tegishli sertifikatga ega bo'ldi. Nazorat va monitoring ishlari natijasida 2025- hamda 2026-yilning birinchi choragida qonun buzilishi bilan bog'liq ikki holat aniqlanib, huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yuborildi.

Institutda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar korrupsiyaviy holatlarning oldini olish bilan birga, jamoada halollik va mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida raqamlashtirish jarayonlarini yanada kengaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan ishlarning izchil davom ettirilishi ushbu yo'nalishdagi samaradorlikni yanada oshirishi shubhasiz.

Shavkat HAMROYEV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi boshlig'i

Ta'limga takliflarim

LIDERLIK KOMPETENSIYASI: uni rivojlantirish uchun nimalar zarur?

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – ta’lim tizimini rivojlantirish. Ushbu jarayonda maktab direktorlarining o‘rni va mas’uliyati g‘oyat muhim. U nafaqat ma’muriy rahbar, balki pedagogik jarayonlarning tashkilotchisi, o‘qituvchilar jamoasining yetakchisi, innovatsiyalarni joriy etuvchi va ta’lim muassasasini jamiyat bilan bog‘lovchi asosiy figura hisoblanadi. Uning samarali liderlik ko‘nikmalari maktabdagi ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlash va o‘quvchilarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda yurtimizda maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyalarini, jumladan liderlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Biroq zamonaviy chaqiriqlar, global raqobat muhiti va ta’lim sohasidagi tezkor o‘zgarishlar mavjud mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shunday ekan tizimning samaradorligini tahlil qilish, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifa.

Liderlik tushunchasi ta’lim sohasida uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Transformatsion liderlik nazariyasi maktab direktorini o‘qituvchilarni ilhomlantiruvchi, ularning kasbiy o‘sishiga ko‘maklashuvchi va maktab madaniyatini yaxshilashga intiluvchi shaxs sifatida namoyon qiladi. Pedagogik liderlik esa o‘quv dasturlarini rivojlantirish, o‘qitish metodikalarini takomillashtirish va o‘quvchilarning akademik yutuqlarini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy kontekstda maktab direktori quyidagi asosiy liderlik kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim: strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish, pedagogik jarayonlar, inson resurslarini samarali boshqarish, jamiyat bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, innovatsiyalarni joriy etish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish.

Xalqaro miqyosda maktab direktorlarining liderlik ko‘nikmalarini oshirishga doir ilg‘or tajribalar mavjud. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar, masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur va Finlandiyada maktab direktorlari uchun maxsus malaka oshirish kurslari, sertifikatlash dasturlari va mentorlik tizimlari joriy etilgan. Ushbu dasturlar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va doimiy kasbiy o‘shishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Xususan, AQSHning Shimoliy Jorjiya universiteti bilan Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti o‘rtasida imzolangan memorandum doirasida “Maktablarda liderlik va STEAM” nomli 12 haftalik malaka oshirish kursi tashkil etilgan. Mazkur dastur ikki bosqichli suhbat asosida tanlab olingan 25 nafar ingliz tilini biladigan maktab direktorining liderlik ko‘nikmalari va STEAM fanlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan. Bu kabi loyihalar xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning muhim namunasidir. Shuningdek, Janubiy Koreyaning

KOICA agentligi va Dong-Eui universiteti mutaxassislari, Singapurning Marshall Cavendish Education kompaniyasi bilan maktabgacha ta’lim muassasalari direktorlari uchun liderlik treninglari bo‘yicha hamkorliklar mavjudligi O‘zbekistonning xalqaro amaliyotga integratsiyalashuvidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda maktab direktorlari liderlik ko‘nikmalarini oshirishda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi hududiy malaka oshirish markazlari hamda turli xalqaro tashkilotlar muhim rol o‘ynamoqda. Mavjud mexanizmlar asosan qisqa muddatli kurs, seminar va treninglar shaklida tashkil etiladi. Mirobod tumanidagi 158-maktabda direktorlar uchun “Ta’lim muassasasi rahbarlarining liderlik kompetensiyalarini oshirish hamda ta’lim jarayonida STEAM usullaridan foydalanish” mavzusida o‘tkazilgan seminarlar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu seminarlarda Sokrat doirasi, keys-stadi tahlili, tadqiqotga asoslangan ta’lim kabi zamonaviy o‘qitish texnikalari namoyish etilib, qisqa va uzoq muddatli o‘quv loyihalarini yaratish va amalga oshirish metodlari ko‘rsatilgan. Bu kabi tadbirlarda fanlararo integratsiya(masalan, “Vitaminlar” va “Pul tarixi” darsi) hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, sohada onlayn platformalardan foydalanish ham kengayib bormoqda. Masalan, Onlinedu.uz platformasi orqali 669 mingdan ortiq foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, 2024-yili taxminan 210 ming nafar pedagog onlayn malaka oshirish kurslarini tamomlagan. 2025-yil yanvar oyidan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishining yangi tartibi kuchga kiradi, unga ko‘ra pedagoglar har besh yilda bir marta malaka oshirishlari shart. Bu kabi o‘zgarishlar tizimning rivojlanihidan dalolat beradi.

Biroq mavjud mexanizmlarning ba’zi kamchiliklari ham yo‘q emas. Birinchidan, malaka oshirish dasturlari ko‘pincha fragmentar bo‘lib, yaxlit va tizimli yondashuv yetishmaydi. Ikkinchidan, o‘quv kurslarining amaliy ahamiyati, ba’zan nazariy bilimlarni berishga haddan tashqari e’tibor qaratilishi tufayli cheklangan bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, baholash tizimi ko‘pincha bilimlarni qayta tiklashga qaratilgan bo‘lib, liderlik ko‘nikmalarini amalda qo‘llash va ularning maktab sa-

maradorligiga ta’sirini o‘lchashga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Direktorlarning tanlov jarayoni yoki malaka oshirishda ingliz tilini bilishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Tajribali, ammo chet tillarini bilmaydigan direktorlar uchun xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyatini cheklab qo‘yishi mumkin. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi tartibi mustaqil malaka oshirish imkoniyatlarini yaratgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi va nazorati bo‘yicha aniq mexanizmlarni takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni bildiraman.

Direktorlarning kompetensiya modelini ishlab chiqish va uni malaka oshirish dasturlariga integratsiya qilish zarur. Bu model strategik rejalashtirish, pedagogik liderlik, inson resurslarini boshqarish, moliyaviy resurslarni jalb qilish va boshqarish(masalan, Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda joriy etilayotgan natijaga asoslangan moliyalashtirish tizimi RBF bo‘yicha bilimlar), raqamli transformatsiya, jamoatchilik bilan ishlash kabi asosiy yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim.

Blended-learning(aralash o‘qitish) yondashuvini kengaytirish lozim. Onlayn o‘qitishning afzalliklari (Onlinedu.uz platformasi tajribasi) va an’anaviy oflayn treninglarning amaliy ahamiyatini birlashtirish orqali yanada samaraliroq dasturlarni yaratish mumkin. Bu dasturlar keys-stadi, loyihaviy ishlar, munozaralar, simulyatsiyalar va mentorlikni o‘z ichiga olishi kerak. Misol uchun, Mirobod tumanidagi 158-maktabda ko‘rsatilgan amaliy darslar va loyihalarni(masalan, ICT4GIRLS Digital Camp) malaka oshirish dasturlarining ajralmas qismiga aylantirish maqsadga muvofiq.

Ixtisoslashgan modullarni ishlab chiqish, maktab direktorlarining ehtiyojlari va maktablarning joylashuviga(shahar/qishloq) qarab, ta’lim dasturlarini differentsiatsiya qilish zarur. Pedagogik liderlik va o‘quv dasturlarini rivojlantirish(STEAM integratsiyasi), AT va raqamli ta’limni boshqarish, moliyaviy boshqaruv, inson resurslarini rivojlantirish, psixologik ko‘mak, qonunchilik asoslari kabi modullar chuqurlashtirilishi lozim.

Doimiy monitoring va baholash tizimini joriy etish kerak. Malaka oshirish kurslarining ta’lim sifati va maktab faoliyatiga ta’sirini muntazam ravishda baholash, samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kurslarni tamomlagan direktorlarning maktablarida o‘quv natijalari, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati va maktabdagi innovatsion muhit kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinishi lozim.

Shu o‘rinda aytish kerakki, mentorlik va tajriba almashish amaliyotini mustahkamlash, tajribali direktorlarning yosh direktorlarga mentorlik qilishini rag‘batlantirish, ular o‘rtasida tajriba almashish forumlari va platformalarini yaratish, eng ilg‘or amaliyotlarni kengaytirish maktablararo hamkorlikni kuchaytiradi.

Takomillashtirilgan mexanizmni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiril-

ganda birinchi bosqichda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan yangi kompetensiya modeli va unga asoslangan pilot malaka oshirish dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlar mamlakatning turli hududlaridan tanlab olingan maktab direktorlari guruhlar orasida sinovdan o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqichda pilot dasturlarning natijalari tahlil qilinib, zarur tuzatishlar kiritiladi va dasturlar respublika miqyosida kengaytiriladi. Bunda Onlinedu.uz platformasining imkoniyatlaridan faol foydalanib, aralash o‘qitish modullari joriy etiladi. Xalqaro ekspert va tashkilotlar (AQSH, Janubiy Koreya, Singapur hamkorlari) bilan hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy o‘quv materiallari va metodikalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Uchinchi bosqichda malaka oshirish tizimining samaradorligini doimiy monitoring qilish va baholash mexanizmlari to‘liq ishga tushiriladi. Maktab direktorlarining faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlar, o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari, o‘qituvchilarning kasbiy o‘shishi va maktablardagi innovatsion muhit monitoring natijalarini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘ladi.

Takomillashtirilgan mexanizmdan kutilayotgan natijalar katta. Aytish kerakki, maktab direktorlarining liderlik salohiyati sezilarli darajada oshib, zamonaviy boshqaruv va pedagogik yondashuvlarni egalaydi. Maktablardagi ta’lim sifati va samaradorligi oshib, o‘quvchilarning bilim olishiga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ijodkorligi rag‘batlantiriladi, maktabda innovatsion va do‘stona muhit shakllanadi.

Maktab direktorlarining liderlik ko‘nikmalarini oshirish ta’lim tizimini rivojlantirish va ta’lim sifatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mavjud malaka oshirish mexanizmlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligini oshirish va zamonaviy talablarga to‘liq javob berish uchun tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish, jumladan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Shimoliy Jorjiya universiteti hamkorligidagi STEAM va liderlik kurslari, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Marshall Cavendish Education kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi bu yo‘ldagi dastlabki muhim qadamlardir.

Ushbu takliflarning amalga oshirishi O‘zbekiston ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga, maktab direktorlarining zamonaviy va samarali liderlarga aylanishiga, pirovardida esa barkamol avlodni tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

Javohir RAHMATOV,
Qibray tumanidagi
30-maktabning ingliz tili fani
o‘qituvchisi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti magistranti

Nuqtayi nazar



Bugun biz tarixiy bosqichda turibmiz. Davlatimiz taraqqiyotining yangi davrida faqat iqtisod yoki texnologiya bilan emas, balki inson kapitali, ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, irodasi va ma'naviy-ijtimoiy salohiyati hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili arafasidagi Murojaatida “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi”ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu – shunchaki yangi muassasa emas. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi mantig‘i.

To‘rtinchi sanoat inqilobi zavoddan emas, inson tafakkuridan boshlanadi

To‘rtinchi sanoat inqilobiga oddiy eski tarbiya usullari bilan kirib borish mumkinmi? Menimcha, yo‘q. Chunki bu jarayon xomashyodan innovatsiyaga, bilimdan kompetensiyaga, oddiy ijrochidan tashabbuskor shaxsga o‘tishni talab qiladi. Bu esa “ta’lim-tarbiya – ilm-fan – ishlab chiqarish”ni bir zanjirga aylantirishni taqozo etadi.

Agar tafakkur yangilanmasa, texnologiya ham kutilgan samarani bermaydi. Ma’lumki, To‘rtinchi sanoat inqilobi avvalambor millat dunyoqarashidagi o‘zgarishdan boshlanadi, ta’lim va tarbiyadan sifat, yoshlardan bilim, tadbirkorlik kompetensiyasi, tashabbus, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezident qarori bilan tashkil etilgan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida biznes pedagogika kabi yangi fan yo‘nalishiga asos solingani bejiz emas. Keling, ochiq tan olaylik: bugun dunyodagi ilg‘or davlatlar tasodifan rivojlangan emas. Ular tarbiya, ta’lim, innovatsiya va inson salohiyatini bir tizimga aylantirgani uchun oldinga chiqqan.

Innovatsiya – bu faqat texnologiya emas, tarbiyani tizim sifatida qayta qurishdir. Ya’ni biz yoshlar tarbiyasini faqat gajet, platformalar yoki yangi tadbirlar bilan isloh qila olmaymiz.

Agar tizim bo‘lmasa, eng yaxshi texnologiya ham faqat shaklni o‘zgartiradi, mazmun esa o‘sha-o‘sha qolib ketaveradi. Shu nuqtayi nazardan, “tarbiyaning innovatsion metodologiyasi” deganda biz to‘rt asosni nazarda tutamiz: **birinchisi – qadriyat, ikkinchisi – kompetensiya, uchinchisi – muhit, to‘rtinchisi – o‘lchash.**

Nega aynan shu to‘rtlik?

Qadriyat yo‘nalish bo‘lsa, kompetensiya – harakat vositasi, tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, dalil bilan ishlash, muloqot, jamoada ishlash, qaror qabul qilish – bular qadriyatni hayotga tatbiq qiladigan vositalardir.

Uchinchi tayanch – bu muhit.

Yoshni faqat sinfxona emas, oila, tengdoshlar, mahalla, media, internet, raqamli maydon tarbiyalaydi. Demak, tarbiya haqida gapirganda, biz bitta auditoriyani emas, butun ta’sir muhitini ko‘rishga majburmiz.

To‘rtinchi tayanch – o‘lchash.

Ilmda bir oddiy qoida bor: o‘lchanmagan narsa boshqarilmaydi. Bu yerda gap inson qadriini ballga aylantirish haqida emas, gap – tarbiya dasturining samarasini ko‘rish, kompetensiya, xulq, mas’uliyatda qanday o‘zgarish bo‘ldi – shuni aniq mezonlar bilan baholash haqida.

Shuning uchun quyidagi to‘rt savolga javob izlaymiz.

Birinchidan, nega globallashtirish sharoitida tarbiyaga an’anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay qoldi?

Ikkinchidan, innovatsion metodologiyaning asosiy prinsiplari qanday bo‘lishi kerak?

Uchinchidan, keys, loyiha, mentorlik, servis-o‘qish kabi amaliy instrumentlar amalda qanday ishlaydi?

To‘rtinchidan, natijani qanday indikatorlar orqali ko‘rish va baholash mumkin?

Maqsadim – tarbiya haqida umumiy gapirish emas. Tarbiyani ilmiy asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan, o‘lchanadigan va masshtablanadigan tizim sifatida

TARBIYANING INNOVATSION



ko‘rsatish. Tabiiy savol tug‘iladi: nega innovatsion metodologiya haqida aynan hozir gapirishimiz kerak? Axir tarbiya azaldan bor-ku?! To‘g‘ri, tarbiya hamisha bo‘lgan. Lekin bugungi davrning tarbiyaga qo‘yayotgan talabi mutlaqo boshqacha.

Agar biz kechagi usullar bilan bugungi murakkab dunyoga javob bermoqchi bo‘lsak, bir xavf paydo bo‘ladi: ko‘p harakat qilib, kam natija olamiz.

Tasavvur qiling, yoshlar yangi axborot dunyosida yashayapti, iqtisod yangi kompetensiyalar talab qilayapti, jamiyatda yangi xavflar paydo bo‘layapti. Ammo tarbiya esa hali ham eski ko‘rinishda qolmoqda. Bu yerda nomutanosiblik kelib chiqadi. Shuning uchun innovatsion metodologiya shunchaki “yangilikka qiziqish” emas – zamon talabi.

Birinchi omil – raqamli muhit. Men bu dolzarblikni uchta katta omil orqali tushuntirmoqchiman. Raqamli kommunikatsiya muhitining dominantlashuvi.

Ilgari bolaning axborot manbalari asosan oila, maktab va yaqin atrof bilan cheklangan edi. Bugun esa uning diqqati, hissiyoti, fikri, hatto ba’zan pozitsiyasi ham algoritmlar boshqarayotgan axborot maydonida shakllanmoqda. Muammo fakt bilan fikr, haqiqat bilan manipulyatsiya, axborot bilan ta’sir o‘rtasidagi chegara xiralashib ketganida. Demak, tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri – yoshlarda mediasavodxonlikni, tanqidiy tahlilni, axborot gigiye-nasini, dalilga tayangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishdir. Bu vazifani oddiy nasihat bilan hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun maxsus metodologiya kerak.

Ikkinchi omil – iqtisodiy va kasbiy dunyoning kompetensiyaga asoslanishi. Ayni paytda insondan faqat ma’lumot emas, amaliy qobiliyat talab qilinmoqda. Muammoni hal qila olish, jamoada ishlay olish, tashabbus ko‘rsatish, reja tuzish, natijani baholay olish – mana shu sifatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Agar maktab va tarbiya tizimi bu kompetensiyalarni shakllantirmasa nima bo‘ladi? Javob aniq. Yoshlar ko‘p narsani biladi, lekin hayotda qo‘llay olmaydi. Nega? Bu – zamonaviy dunyoning eng og‘riqli paradokslaridan biri.

Shuning uchun innovatsion metodologiya tarbiyani “gapirish”dan “bajarish”ga, “tushuntirish”dan “mashq qildirish”ga, “eshitish”dan “ishtirok etish”ga olib o‘tishi shart.

Uchinchi omil – ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy immunitet masalasi. Bugungi global muhitda mafkuraviy ta’sirlar, agressiya, radikal chaqiriqlar, polyarizatsiya kabi xavflar kuchayib bormoqda. Shunday sharoitda yosh insonning ichki barqarorligi, qonunga hurmati, adolat hissi, insonparvarligi va ijtimoiy mas’uliyati faqat shaxsiy fazilat emas – bu jamiyat xavfsizligining bir qismiga aylanadi. Demak, tarbiya endi faqat shaxsiy kamolot masalasi emas. Davlatning barqaror rivojlantirish strategiyasining bir qismi. Shu uch omildan kelib chiqib, bir xulosaga kelish mumkin. Innovatsion metodologiya tarbiyani yangi sharoitga moslashtiradi. U

yoshni axborot muhitida adashmaslikka, kompetensiya-asoslangan hayotga tayyor bo‘lishga va eng muhimi, qadriyati barqaror fuqaro bo‘lib shakllanishga yordam beradi. Endi asosiy tushunchaga o‘taylik, “Innovatsion metodologiya” deganda biz nimani nazarda tutaymiz? Ko‘pchilik metodologiya deganda metodlar ro‘yxatini tushunadi. **Aslida esa metodologiya – bu mantiq, prinsip va boshqaruv siklidir.** Ya’ni ishni qanday qurish, boshqarish va takomillashtirish kerakligi haqidagi tizimli yondashuvdir. Shu asosda men quyidagi ta’rifni taklif qilaman. Innovatsion metodologiya – bu tarbiyani natijaga yo‘naltiriladigan, o‘lchanadigan va o‘z-o‘zini takomillashtirib boradigan tizimga aylantiruvchi boshqaruv siklidir. Bu ta’rifning markazida bitta qat’iy qoida bor: og‘zaki ta’sirning o‘zi yetarli emas, natija ko‘rinishi, natija o‘lchanishi, qaysi mexanizm bilan shakllanishi aniq bo‘lishi kerak.

SUN’IY INTELLEKT imkoniyatmi

Sun’iy intellekt hayotimizning deyarli barcha jabhasiga kirib bormoqda. U raqamli texnologiyalar tizimidan tortib tibbiyotgacha, sanoatdan tortib kundalik muloqotimizgacha bo‘lgan jarayonlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Tabiiyki, ta’lim sohasi, xususan, oliy ta’lim ham bu jarayondan chetda qolayotgani yo‘q. Endi savol tug‘iladi: sun’iy intellekt oliy ta’lim uchun yangi imkoniyatmi yoki jiddiy sinov?

O‘qituvchi va talabalarning dars jarayoniga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishidagi o‘zgarishni payqash qiyin emas, albatta. Avvallari barcha talabalar bir xil fan dasturlari, darslik va manbalardan foydalangan bo‘lsa, hozir sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim platformalari orqali ulkan resurslar bazasiga ega bo‘lmoqdalar. An’anaviy o‘qitish tizimida bir xil tezlik va bir xil baholash mezonlari asosida o‘qitilgan bo‘lsa, bugun SI yordamida har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojiga mos o‘quv yo‘lini shakllantirish mumkin. Bu esa **“Hamma uchun bir xil ta’lim”** tamoyilidan **“Har bir talaba uchun mos ta’lim”** yondashuviga o‘tishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellektning yana bir muhim jihati, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi vaqt, makon va masofa to‘siqlarini yo‘q qilganidir. Virtual yordamchilar, aqlli platforma hamda avtomatik tahlil tizimlari talabalarga istalgan vaqt hamda joyda bilim olish, vazifalarni bajarish, xatolarini tahlil qilish, mustaqil ta’limda va o‘z ustida ishlash imkonini bermoqda. Shu asnodan mustaqil ta’lim madaniyati shakllanib, talaba bilim olish jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylanmoqda.

Oliy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi afzalliklari va imkoniyatlari mavjud:

- ta’limni individuallashtirish va differensial yondashuv;
- ta’lim samaradorligini oshirish;
- baholash va monitoringning obyektivligi;
- o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirish;
- ta’limda innovatsion muhitni shakllantirish.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda raqamli boshqaruv tizimlariga kiruvchi **HEMIS, Moodle, Google Classroom, Zoom** kabi platformalar faol qo‘llanib kelinmoqda. **ChatGPT, GPT-based tutor, Duolingo AI**, chet tillarini o‘qitishda foydalaniladigan **Grammarly, Quillbot, DeepL Write, ELSA Speak** kabi platformalardan ham oliy ta’lim tizimida foydalanilmoqda.



METODOLOGIYASI

5 bosqichli sikl

Bu metodologiya amalda 5 bosqichli sikl sifatida ishlaydi.

1-bosqich – maqsadni aniqlash. Biz qanday yoshni tarbiyalamoqchimiz? “Yaxshi yosh (avlod)” degan umumiy gap bilan ish bitmaydi. Biz aniq profilni belgilashimiz kerak: qadriyatga sodiq, mas’uliyatli, mustaqil fikrlaydigan, qonunni hurmat qiladigan, raqamli muhitda ongli harakat qiladigan yosh.

2-bosqich – diagnostika. Real holat qanday? Qaysi jihat kuchli yoki zaif? Axborot gigiyenasi qanday? Jamoada ishlash, qaror qabul qilish madaniyati qay holatda? *Diagnostikasiz tarbiya – ko‘zni yumgan holda harakat qilish bilan barobar.*

3-bosqich – metod va muhitni loyihalashtirish. Mana shu yerda amaliyot boshlanadi. Keys, loyiha, mentorlik, servis-o‘qish, debat, simulyatsiya kabi

metodlar tanlanadi. Ammo faqat metod yetarli emas, u ishlaydigan muhit, qoida, rag‘bat va mas’uliyat tizimi ham yaratilishi kerak.

4-bosqich – ijro va kuzatuv. Bu bosqichda tadbir o‘tkazishning o‘zi maqsad emas, jarayon kuzatiladi, fid-bek yig‘iladi, ishtirok, intizom, vazifa bajarilishi, xulq dinamikasi tahlil qilinadi.

5-bosqich – o‘lchash, tahlil va korreksiya. Qaysi mexanizm ishladi? Qaysi joyda zaiflik bor? Nimani yaxshilash kerak?

Ana shu tahlil keyingi siklni kuchaytiradi.

Eng muhim g‘oya shu: tarbiya jarayoniga maqsad → diagnostika → loyiha → ijro → tahlil siklini joriy etish kerak. Shunda tarbiya tasodifiy tadbirlar yig‘indisi emas, boshqariladigan tizimga aylanadi.

Innovatsiyaning 4 darajasi

Ko‘pincha “innovatsiya” deganda texnologiya, sun‘iy intellekt, raqamlashtirish yoki gajetlar ko‘z oldimizga keladi. Lekin tarbiya sohasida innovatsiya bundan kengroq tushuncha.

Men innovatsiyani 4 darajada ko‘rishni taklif qilaman:

1. Maqsad innovatsiyasi. Insonni qanday tarbiyalaymiz?

Ilgari javob umumiy bo‘lardi: yaxshi bo‘l, odobli bo‘l, bilimli bo‘l! Bugun esa natija profili aniq bo‘lishi shart: qadriyatga sodiq, mehnatsevar, jamoada ishlaydigan, qonunga hurmatli, tanqidiy fikrlaydigan, raqamli muhitda ongli harakat qiladigan yosh.

2. Mazmun innovatsiyasi. Mazmun – faqat mavzular ro‘yxati emas. Qadriyatni kompetensiyaga, kompetensiyani xulqqa bog‘laydigan tizim.

Masalan, “vatanparvarlik” mavzusini shunchaki gapirish kifoya emas, uning amaliy ifodasi bo‘lishi kerak: jamiyat manfaatini hisobga olish, qonunbuzarlikka murosasizlik, oqibatni oldindan ko‘ra bilish, mas’uliyatli qaror qabul qilish.

3. Metodik innovatsiya. Bu yerda asosiy o‘zgarish – tinglovchini ishtirokchiga aylantirish.

Keys – qarorni, loyiha – natija va mas’uliyatni, debat – pozitsiya va dalilni o‘rgatadi. Servis-o‘qish – qadriyatni amalga aylantiradi. Mentorlik – ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

4. Boshqaruv innovatsiyasi. Eng muhim, lekin ko‘pincha eng kam e‘tibor beriladigan nuqta – boshqaruv. Agar monitoring, fidbek, korreksiya, mas’ullar va resurslar aniq bo‘lmasa, eng yaxshi g‘oya ham faqat yaxshi niyat bo‘lib qoladi. Xulosa shuki, maqsad aniq, mazmun kompetensiyaga ulangan, usul faol, boshqaruv esa o‘lchashga tayangan bo‘lsagina, haqiqiy innovatsion tarbiya tizimi vujudga keladi. Bu indikatorlar ko‘p emas, beshta, lekin yetarli. Ular har chorakda bir marta tahlil qilinadi, natijaga qarab korreksiya kiritiladi.

Ana shu “o‘lchash → tahlil → korreksiya” siklining amaldagi ko‘rinishidir.

Asosiy xulosalarni bir nuqtaga yig‘aylik!

Birinchi xulosa – tarbiyada texnologiyadan ko‘ra tizim muhim, ya‘ni tarbiya tadbirlar yig‘indisi emas, maqsad, mazmun, usul va boshqaruvning o‘zaro bog‘langan mexanizmi.

Ikkinchi xulosa – tarbiyani barqaror qiladigan kuch – o‘lchash → tahlil → korreksiya sikli. Agar shu madaniyat yo‘lga qo‘yilsa, tarbiya hissiy taassurot emas, dalilga tayangan boshqaruv sohasiga aylanadi.

Uchinchi xulosa – mentorlik va mustaqil faoliyat. Yoshlar eshitib emas, tajriba, qaror qabul qilib, natija yaratib kamolga yetadi. Endilikda tabiiy savol tug‘iladi: bu metodologiyaning davlat, jamiyat, yosh va oilaga amaliy foydasi nima? Davlat va jamiyat uchun birinchi foyda – ijtimoiy barqarorlik va ishonch mustahkamlanadi. Qadriyat, qaror madaniyati va jamoaviy mas’uliyat kuchaysa, polyarizatsiya, agressiya, feyk axborot ta‘siri pasayadi.

Ikkinchi foyda – qonunga hurmat va fuqarolik ongi oshadi. Yoshlar qarorni “me‘yor – qadriyat – oqibat” zanjirida qabul qilishni o‘rganadi.

Uchinchi foyda – inson kapitali sifat jihatdan o‘sa-di. Tanqidiy fikr, jamoada ishlash, mas’uliyat, tashabbus kabi kompetensiyalar mehnat bozori uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

To‘rtinchi foyda – islohotlarning ijtimoiy tayanchi kengayadi. Natijaga yo‘nalgan, ongli, proaktiv yoshlar islohotlarni faqat kuzatmaydi, unda ishtirok etadi.

Beshinchi foyda – deviant xulq va ijtimoiy risklar kamayadi, erta tashxis, mediasavodxonlik, mentorlik va servis-faoliyat bunga xizmat qiladi.

Oltinchi foyda – volontyorlik va jamoatchilik tashabbuslari o‘sa-di, yoshlar muammoni ko‘ruvchi emas, yechim taklif qiluvchi kuchga aylanadi.

Yettinchi foyda – boshqaruvda dalilga tayangan qarorlar ko‘payadi. Tarbiya sohasi hisobotchilikdan natijador boshqaruvga o‘tadi. Bu metodologiya yoshlarda qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi. Ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Kommunikatsiya va jamoada ishlashni rivojlantiradi, amaliyotga yaqin kompetensiyalar beradi, raqamli immunitetni kuchaytiradi, o‘z-o‘zini boshqarish va intizomni mustahkamlaydi, eng muhimi – “men qila olaman” degan ishonchni shakllantiradi.

Xususan, oilada munosabat madaniyati yaxshilanishi bilan bir qatorda ota-ona uchun ham tarbiyaning aniq va zamonaviy modeli paydo bo‘ladi. Raqamli xavflardan xavotir kamayib, farzandning mustaqillik, ishonch va mas’uliyati ortadi, oila va jamoa o‘rtasida ijtimoiy bog‘liqlik kuchayadi, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Institut olimlarining izlanishlari asosida **“Milliy tarbiya modeli”** loyihasi ishlab chiqildi. Bu model O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida o‘z ifodasini topdi.

Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik, shuningdek, XXI asr kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, muammoni hal qilish, kommunikatsiya, jamoaviy ish, raqamli savodxonlik, o‘z-o‘zini boshqarish, emotsional intellekt, liderlik va tashabbuskorlik – ushbu model markaziga qo‘yilgan.

Milliy tarbiya modeli asosida:

- bog‘cha – maktab – kasb-hunar – OTM zanjirida yagona dinamik tarbiya standartlari yaratiladi;
- tarbiyalanganlik darajasini baholash mexanizmi shakllanadi;
- oila–maktab–mahalla yagona tarbiya maydoniga aylanadi;
- jamiyatda sog‘lom ma‘naviy muhit kuchayadi.

Shuningdek, 7 yillik differensial pedagogik texnologiyaning konseptual modeli ishlab chiqilib, unda milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik, tarixiy merosga hurmat, ijtimoiy mas’uliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish indikatorlari ilmiy asosda aniqlashtirildi.

Ilmiy-metodik adabiyot, elektron resurs, innovatsion pedagogik metodlar, interaktiv mashg‘ulotlar va pedagogik diagnostika mezonlari taklif etildi.

Bu borada qator mamlakatlar bilan ilmiy-pedagogik aloqalar o‘rnatilib, ilmiy anjuman, simpoziumlar o‘tkazildi. Quvonarlisi, “Milliytarbiya.uz” platformasi ishga tushirildi.

Yangi O‘zbekistonni qurishda yoshlar – strategik resurs. Lekin har qanday resursning haqiqiy qiymati – uni to‘g‘ri ishga solishda. Agar biz yosh avlodni tasodifiy ta‘sirilar qo‘liga tashlab qo‘ysak, imkoniyatni boy beramiz. Tarbiyani ilmiy asoslangan, o‘lchanadigan, zamonga mos va ma‘naviy jihatdan mustahkam metodologiya asosida qurolsak, nafaqat yaxshi o‘quvchi, yaxshi mutaxassis, balki Yangi O‘zbekistonning tayan-chi bo‘ladigan shaxsni tarbiyalaymiz.

Bugun gap – millat kelajagining metodologiyasi haqida ketayapti. Agar biz tarbiyani tizimga aylantirsak, yoshlar kelajakni kutmaydi – uni quradi. Mana shu ishonch bilan barchangizni hamkorlikka, ilmiy izlanishga va amaliy harakatga chorlayman.

Yangi O‘zbekistonning ertasi – bugun biz qanday metodologiya tanlashimizga bog‘liq!

Xolboy IBRAIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik

VA OLIY TA‘LIM: yoki sinov?

Biroq ta‘limda sun‘iy intellektidan foydalanish jarayonining ikkinchi tomoni ham bor. Raqamli texnikadan haddan tashqari ko‘p foydalanish talabning mustaqil fikrlashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Tayyor javoblar, avtomatik matnlar va tezkor yechimlar fikrlash jarayonini soddalashtirib yuboradi. Agar bu holat nazoratsiz qolsa, oliy ta‘limning asosiy maqsadi bo‘lgan tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ikkinchi darajaga tushib qolishi ehtimoli bor.

Shuningdek, akademik halollik masalasi ham dolzarblashmoqda. Sun‘iy intellekt yordamida yozilgan topshiriqlar, referat va hatto ilmiy ishlar ta‘lim sifatiga putur yetkazishi mumkin. Bu esa o‘qituvchidan nafaqat texnologiyani bilishni, balki uni to‘g‘ri boshqarish va pedagogik jihatdan muvozanatni saqlashni ham talab etadi.

Shu o‘rinda texnologik tengsizlik masalasi ham e‘tibordan chetda qolmasligi lozim. Barcha oliy ta‘lim muassasalari yoki talabalar zamonaviy sun‘iy intellekt vositalaridan bir xil darajada foydalana olmaydi. Bu esa ta‘limda yangi tafovutlarni yuzaga keltirib, ijtimoiy tenglik tamoyillariga zid holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi kamchiliklari ham bor:

- akademik halollikka tahdid;
- texnologik tengsizlik;
- o‘qituvchi rolining cheklanishi xavfi;
- ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari;
- metodik va huquqiy bazaning yetishmasligi.

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellektni oliy ta‘limda qo‘llash nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, axloqiy va pedagogik masala hamdir. U o‘qituvchini almashtirish uchun emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilishi kerak. Eng maqbul yechim – bu inson tafakkuri va sun‘iy intellekt imkoniyatlarining uyg‘unligidir. Faqat shundagina oliy ta‘lim haqiqatan ham zamon talablariga mos, sifatli va barqaror tizimga aylanishi mumkin.

Demak, savolga javob shunday: sun‘iy intellekt oliy ta‘lim uchun ham imkoniyat, ham sinovdir. Eng muhimi, undan ongli, mas’uliyatli va maqsadga muvofiq foydalanish lozim.

Klara TURSUNOVA,
Samarqand davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi



Inklyuziv ta'lim

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida integrallashgan inklyuziv yondashuvlar

Maktablarda turli ehtiyojga ega o'quvchilar: oligofreniya, skolioz, ko'rishda nuqsoni bor va harakati cheklanganlar uchun jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogik, psixologik va differensial(tabaqalashtirilgan) yondashuvlar – alohida ehtiyojli o'quvchi imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifatli ta'lim berishi lozim.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik, psixologik, differensial, metodik yondashuvlari bilan tanishib chiqamiz. Mashg'ulotlarni moslashtirish jismoniy tarbiya darslarda an'anaviy metodlar o'rniga moslashtirilgan (adaptiv) metodlar qo'llaniladi.

Qoidalarini o'zgartirish. Masalan, voleybol o'yinida to'pni yerga tekkizmasdan qaytarish o'rniga, imkoniyati cheklangan bola to'pni bir marta ushlab olib, keyin uzatishiga ruxsat berish kerak.

Natijani tabaqalashtirish. Maktab jismoniy tarbiya darsi uchun inklyuziv, integrallashgan yondashuvda mashqlar ketma-ketligini tuzishda **“kamroq shiddat, ko'proq nazorat”** tamoyiliga amal qilish lozim.

Sport jihozlaridan foydalanishda moslashtirish. Ko'rishda nuqsoni bor bolalar uchun ovoz chiqaruvchi(qo'ng'iroqli) to'plar, yengil va yumshoq anjomlar, rangli chiziqlar va yorqin belgilar, ko'rgazmalilik yoki og'zaki tushuntirishdan ko'ra, amaliy ko'rsatish va vizual kartochkalardan foydalanish samaraliroq.

O'qituvchi uchun tavsiyalar. Jismoniy tarbiya darsiga inklyuziv integrallashgan yondashuvda o'qituvchi, fasilitator(yo'naltiruvchi), kouch(o'rgatuvchi), tyutor(yordamchi pedagog), tibbiy xodim, psixolog va ota-onalarning doimiy hamkorligi maqsadga muvofiq.

Muhitni moslashtirishi. Sport zali yoki sport maydonchasida harakatlanish uchun alohida joy ajratish va tegishli jihozlardan foydalanish joiz.

Tengdoshlar yordami(Peer tutoring). Sog'lom o'quvchilarni imkoniyati cheklangan do'stlariga yordam berishga o'rgatish. Bu jamoada do'stona muhitni shakllantiradi. Muvaffaqiyat vaziyatini yaratishda, hatto eng kichik ijobiy natijani ham (masalan, to'pni to'g'ri ushlash) alohida e'tirof etish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'rtog'i, qo'shnisi bo'lgan sog'lom, a'lochi o'quvchilarni “tyutor”(yordamchi) sifatida bolalarga birlashtirish. Bu har ikki tomonda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'qituvchi tengdosh “tyutor”ga, “sinfidoshi uchun hamma ishni qilish” emas, uning mustaqil faoliyatiga yordamlashish, sinfdoshini charchoq yoki stress holatlarida psixologik qo'llab-quvvatlash, tanaffus va darslarda tengdoshlari bilan muloqot qilishga o'rgatish, kundalik yutuqlari va qiyinchiliklarini qayd etib borish(kundalik yuritish) da yordam berish, murakkab topshiriqlarni bir nechta kichik va oson bajariladigan qismlarga bo'lib bajarishga moslashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Tengdosh “tyutor” yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'yin shaklida o'tkazishda **“Qizil kartochka”** usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Agar o'quvchi charchab qolsa yoki o'zini noqulay his qilsa, qizil kartochkani ko'rsatadi va o'yin u istagan vaqtda to'xtatiladi yoki unga dam beriladi. Bu o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch va xavfsizlik tuyg'usini ta'minlaydi.

Quyidagi sport jihozlari o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuviga ham yordam beradi.

Skoliozi(qad-qomat buzilishi) bor o'quvchilar

Qaddi-qomatni tuzatish uchun. Skoliozi bor o'quvchilar uchun gimnastika devorlari(shved devori), futbol to'plari, maxsus gimnastika tayoqchalari va muvozanatni saqlashga mo'ljallangan ortopedik gilamchalar foydali hisoblanadi. Bu guruh uchun asosiy maqsad – umurtqa pog'onasini zo'rliqtirmasdan, orqa mushaklarini mustahkamlash.

Jihozlar: gimnastika tayog'i, to'plari(fitbol), shved devori, yumshoq matlar.

Qoida: sakrash va og'ir yuk ko'tarish qat'iyman etiladi.

Fitbolda mashq bajarganda to'p bolaning bo'yiga mos bo'lishi kerak(o'tirganda tizza 90 gradus bo'lishi lozim). Shved devorida faqat osilib turish emas, balki devor tutib bajariladigan cho'zilish mashqlari tavsiya etiladi.



Gimnastika tayog'ida bajariladigan mashqlar

“Qadni rostlash”(Umurtqa pog'onasi uchun).

Bajarilishi: tayoqchani ikki uchidan ushlab, pastga tushiring. Nafas olayotganda tayoqchani yuqoriga ko'taring va qo'llarni orqaga biroz cho'zing. Nafas chiqarganda dastlabki holatga qaytadi.

Foydasi: yelka kamarini kengaytiradi.

“Tegirmon”(Buriqlashlar).

Bajarilishi: tayoqchani yelkaga qo'yib, ikki qo'l bilan uchlaridan ushlanadi. Oyoqlar yelka kengligida. Go'yoki “tegirmon” kabi gavgani o'ng va chapga keskin bo'lmagan holda buriladi.

Foydasi: bel mushaklarini elastik qiladi.

“Oldinga egilish”.

Bajarilishi: tayoqcha yuqorida, qo'llar tik. Oldinga egilib, tayoqcha bilan oyoq uchiga tegishga harakat qilindi. Tizzalar bukilmaligi shart.

Foydasi: oyoq orqa mushaklari va bel uchun.

“Qayiqcha”(Pol ustida).

Bajarilishi: Qorin bilan polga yotiladi. Tayoqcha oldinda uzatilgan qo'llarda. Bir vaqtning o'zida qo'llar va oyoqlarni poldan ko'tarib, 3–5 soniya ushlab turiladi.

Foydasi: orqa(bel) mushaklarini mustahkamlaydi.

“Muvozanat”(O'tirib-turish).

Bajarilishi: tayoqchani oldinga cho'zib ushlagan holda, oyoq uchida turib to'liq o'tirib-turiladi. Gavda tik tutilishi kerak.

Foydasi: koordinatsiya va oyoq mushaklari uchun.

Ko'rishda nuqsoni bor(zaif ko'ruvchi) o'quvchilar. Butunlay ko'r bo'lmagan, ammo ko'rish darajasi past bo'lgan o'quvchilar inklyuziv yondashuvda sog'lom o'quvchilar bilan bir sinflarda o'qishi mumkin. Ular uchun darsliklarning yirik shriftidagi variantlari yoki maxsus optik vositalardan foydalaniladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar(ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan, rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan o'quvchilar).

Bu yerda asosiy e'tibor tovush chiqaradigan va yorqin rangli jihozlarga qaratiladi.

Jihozlar: ichida qo'ng'irog'i bor to'plar(golbol to'plari), yorqin rangli(sariq, to'qsariq) konuslar, bo'rtma yuzali(relyefli) yo'lakchalar.

Qoidalar: to'plar harakatlanganda ovoz chiqarishi shart, shunda o'quvchi uning yo'nalishini aniqlay oladi. Maydondagi xavfli hududlar(devor, burchaklar) yumshoq qoplamalar bilan himoyalaniishi kerak. Mashq boshlanishidan oldin o'quvchi jihozni ushlab ko'rishiga imkon berish lozim. Ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ichida qo'ng'irog'i bor(tovush chiqaradigan) to'plar, relyefli(taktil) chiziqlar va yo'nalish ko'rsatuvchi moslamalar ishlatiladi.



Oligofreniya(intellektual rivojlanishida orqada qolish). Bunda gap og'ir psixik kasalliklar haqida emas, balki o'zlashtirishi biroz sust bo'lgan yoki diqqat yetishmasligi mavjud o'quvchilar haqida ketmoqda.

Bunday o'quvchilar uchun diqqatni jamlash va sensorikani rivojlantiruvchi yorqin rangli yumshoq modullar, muvozanat yo'lakchalari va taktil tuzilishga ega sport jihozlari juda muhim. Bu toifa o'quvchilar uchun mashqlar oddiy, qiziqarli va takroriy bo'lishi kerak.

Jihozlar: rangli halqalar (xula-xup), yumshoq modullar, nishonga otish uchun qopchalar(ichiga durnik solingan).

“Sehrli zanjir”(Motorika va moslashuv uchun).

Oligofreniya va harakatlari cheklangan bolalar uchun juda mos keladi.


Kerakli jihozlar: gimnastika tayoqchalari yoki uzun elastik arqon.

Bajarilishi: o'quvchilar bir qator bo'lib, arqon yoki tayoqchani ushlab “poyezd” bo'lishadi. “Poyezd” turli tezlikda va turli shakllarda(zig-zag, doira) harakatlanadi. O'qituvchi “Tunnel!” deganda, hamma egilib o'tishi kerak(bu skolioz uchun foydali cho'zilish).



“Ko'prik!” deganda, hamma qo'llarini baland ko'taradi.

Inklyuzivlik: bu o'yinda zaif ko'ruvchi o'quvchi oldindagi sherigining yelkasidan yoki arqondan tutib, o'zini xavfsiz his qiladi.



Qoidalar: ko'p bosqichli murakkab topshiriqlar bermaslik kerak. Jihozlar yorqin bo'lishi diqqatni jamlashga yordam beradi. **Yumshoq modullardan** foydalanib “to'siqlar yo'lagi”ni yaratishda xavfsizlikka(yiqilganda jarohat olmaslikka) e'tibor beriladi.

Yurak-qon tomir xastaliklari

Yurak kasalliklarida yuklama(nagruzka) juda past bo'lishi va puls nazorat qilinishi shart.

Tavsiya etiladigan mashqlar: nafas olish mashqlari – tinch holatda chuqur nafas olish va chiqarish.

Davolash yurishi: sekin va o'rtacha tempda sayr qilish.

Yengil badantarbiya: qo'l va oyoqlarni o'tirgan yoki yotgan holatda asta-sekin harakatlantirish.

Taqiqlanadi: yugurish, tezkor o'yinlar (futbol, basketbol), nafasni tutib turishni talab qiladigan mashq va musobaqalar.

Inklyuziya prinsipi ta'lim tizimida insonparvar paradigmaning ustuvorlik qilishi va ta'limiy munosabatlarning yangi modeliga o'tishni talab qilmoqda. Muvaffaqiyatli inklyuziv yondashuv ta'lim muhiti shu munosabatlar va qonuniyatlarga amal qilingan holda tashkil etilishi tavsiya qilinadi.

Akrom AKMALOV,
O'zbekiston davlat sport akademiyasi
huzuridagi jismoniy tarbiya va sport
mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti professori, pedagogika fanlari nomzodi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi



2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyat farovonligini oshirish yili

Mahalla – xavfsizlik tayanchi



O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi zamonaviy davlat siyosati huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilik omillarini barvaqt aniqlashga qaratilgan. Ushbu tizimda mahalla kriminogen muammolarni hal qilishda manzilli yondashuvni amalga oshirish imkonini beruvchi asosiy hududiy va ijtimoiy institut vazifasini bajaradi. Mahallalarni kriminogen vaziyat darajasi bo‘yicha tasniflash va ularga aniq mansabdor shaxslarni biriktirishning joriy etilishi shaxsga yo‘naltirilgan javobgarlik modeliga o‘tishni aks ettiradi.

Mahalla fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish shakli sifatida ikki tomondan huquqiy tabiatga ega. Bir tomondan, u huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanmaydi, boshqa tomondan, unga jamoat tartibini ta’minlashda ishtirok etish, ijtimoiy moslashuv va deviant(salbiy) xulq-atvorning oldini olish funksiyalari berilgan. Aynan mahalla darajasida ishsizlik, oilaviy nizolar, ichkilikbozlik, giyohvandlik, ayollar jinoyatchiligi kabi ijtimoiy xavf-xatarlar to‘planadi.

Mahallaning o‘ziga xos xususiyati uning aholiga yaqinligi, oilalarning ijtimoiy muammolari, nizoli vaziyatlar, deviant xulq-atvor omillarini bilishidir. Aynan shuning uchun ham mahalla darajasidagi kriminogen vaziyatga davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilma va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi samaradorligi indikator sifatida qaralmoqda. Binobarin, mahalla fuqarolarning ijtimoiy o‘zini-o‘zi boshqarish shakli sifatida nafaqat ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, balki huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Tuman(shahar) hokimlari, prokuror va ichki ishlar organlari boshliqlari va ularning o‘rinbosarlariga kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan mahallalarni biriktirish tezkor boshqaruv choralari-

ni ko‘rish zarurati bilan bog‘liq. Ushbu subyektlar vaziyatga ta’sir ko‘rsatishning real ma’muriy va protsessual mexanizmlariga ega, yondashuv mahalliy darajada tezkor boshqaruv va huquqni qo‘llash ta’siri zarurligini aks ettiradi, bu yerda aynan tuman organlari zudlik bilan javob berish uchun real resurslarga ega. Bu esa bunday hududlar muammolarining tizimli xarakterga ega ekanligi hamda strategik va muvofiqlashtiruvchi vakolatlariga ega bo‘lgan yuqori turuvchi organlarning aralashuvi zarurligi e’tirof etilishidan dalolat beradi.

“Qizil” toifadagi mahallalar besh yil davomida Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlari, ichki ishlar organlari boshliqlarining o‘rinbosarlari va viloyat hokimlarining o‘rinbosarlariga biriktiriladi. Bunday yondashuv muammolarining tizimli xususiyati va kompleks mintaqaviy yechimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Uch yil davomida “qizil” toifada qolayotgan mahallalar profilaktika siyosatining innovatsion elementi sifatida huquq-tartibot organlarining ta’lim va ilmiy tashkilotlariga biriktirilgani alohida e’tiborga loyiq. Bunday yondashuv davlatning nafaqat kuch ishlatish, balki jinoyatchilik omillarini tahlil qilish, ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish dasturlarini ishlab chiqish, aholining huquqiy madani-

yatini oshirish kabi profilaktikaning ilmiy-ma’rifiy usullariga ham yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Kriminogen vaziyat eng og‘ir bo‘lgan tuman va shaharlar viloyat darajasidagi prokuror va ichki ishlar organlari boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlariga biriktiriladi. Bu barqaror noqulay vaziyat alohida mahallalar doirasidan tashqariga chiqayotgani va keng qamrovli idoralararo yechimlar, jumladan, bandlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, migratsiya va yoshlar siyosati bo‘yicha mintaqaviy siyosatni o‘zgartirishni talab qilayotganini ta’kidlaydi.

Spirтли ichimliklar va giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi, nizoli oilalar o‘rtasida jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar alohida toifani tashkil etadi. Bunday mahallalar uchun mas’uliyatni Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hududiy bo‘limi rahbarlari zimmasiga yuklash mazkur muammolarining ijtimoiy mohiyati e’tirof etilganidan dalolat beradi. Bunda jazolash choralari emas, balki ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashuvga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ushbu model progressiv xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, amaliyotda muayyan muammolar yuzaga kelmoqda. Birinchidan, joylardagi haqiqiy ahvolni o‘zgartirmasdan, mahallalarni rasmiyatchilik uchun mansabdorlarga biriktirib qo‘yish xavfi mavjud. Ikkinchidan, mahalla o‘zini o‘zi boshqarish organlari va davlat tuzilmalari o‘rtasidagi mas’uliyatni chegaralash masalasi ochiq qolmoqda. Uchinchidan, ijtimoiy, huquqni muhofaza qilish va ta’lim institutlari o‘rtasida muvofiqlashtirishning yetarli emasligi ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Og‘ir kriminogen vaziyatga ega mahallalarni turli darajadagi rahbarlarga

differensial biriktirish tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlashning manzilli va profilaktik modelini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu tizimni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida manzilli ishlashning yaxlit tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr-dagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mahalla nafaqat ijtimoiy muammolarni qayd etish makoni, balki ularni aniqlash va oldini olishning birlamchi bo‘g‘iniga aylanishi kerakligiga alohida urg‘u berildi. Ushbu konseptual yondashuv 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyat farovonligini oshirish yili” deb e’lon qilinishi natijasida yanada rivojlantirilib, mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari tizimli va strategik xususiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu modelning samaradorligi bevosita real idoralararo hamkorlik, mahalla o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faol ishtiroki va jinoyatchilikning ijtimoiy sabablariga yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Istiqbolda mahallaning nafaqat davlat organlari tomonidan nazorat obyekti, balki huquqbuzarliklar profilaktikasining real tashkiliy va huquqiy ta’sir vositalari bilan ta’minlangan to‘laqonli subyekti sifatidagi rolini normativ jihatdan kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish yili” deb e’lon qilinishi davlat siyosatining jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosan reaktiv choralaridan huquqbuzarliklar profilaktikasining ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror modeliga o‘tishini aks ettiradi. Bunda mahalla nafaqat davlat dasturlarini amalga oshirishning hududiy birligi, balki ijtimoiy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, huquqiy madaniyatni shakllantirish va kriminogen omillarning oldini olishning tayanch instituti sifatida ham qaraladi.

Rustam ZUFAROV,

TDYU “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korruptsiyaga qarshi kurashish” kafedrası professori, yuridik fanlari doktori

Islahot

Ta’limda tashabbus – xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar



Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish, ayniqsa, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ana shunday ezgu tashabbuslardan biri mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun oliy ta’limga kirishda yaratilgan alohida imkoniyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida”gi qarori ushbu yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Qarorga muvofiq, mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega xotin-qizlar davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga alohida qabul parametrlari doirasida tanlov asosida o‘qishga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu tashabbus, avvalo, turli sabablar tufayli o‘z vaqtida oliy ta’lim olish imkoniga ega bo‘lmagan, biroq yillar davomida mehnat faoliyatida tajriba orttirgan xotin-qizlar uchun ayni muddao. Joriy yilning 1-mayidan 1-iyunigacha besh

yil mehnat stajiga ega bo‘lgan talabgor xotin-qizlardan tavsiyanoma olish uchun arizalar **xotin-qizlar.uz** platformasi orqali qabul qilinishi ushbu jarayonning ochiqlik va qulaylik tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Tavsiyanoma – bu shunchaki hujjat emas, balki orzular sari ochilgan yangi eshik. U orqali xotin-qizlar oliy ta’limga kirish, bilim olish va kasbiy salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur tashabbusning ahamiyati shundaki, unda insonning faqat bugungi holati emas, balki yillar davomida orttirgan mehnat tajribasi, sabr-matonati va intilishi qadrlanadi. Bu esa jamiyatda mehnatga e’tibor va ayol salohiyatiga yuksak hurmat ifodasidir. Ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar faqat

o‘qishga kirish bilan cheklanmayotgani ayniqsa e’tiborli.

So‘nggi paytlarda oliy ta’lim olayotgan yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi imkoniyatlar ham joriy etilmoqda. Jumladan, “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgan oilalardan bo‘lgan talabalar uchun davlat tomonidan kontrakt to‘lovi 50 foizgacha qoplab berilishi ana shunday amaliy ko‘maklardan biri. **my.gov.uz** platformasi orqali murojaat qilgan talabalar o‘qish uchun to‘lov-shartnoma summasining teng yarmigacha qoplatib olish imkoniga ega. Ushbu yordam miqdori yiliga 50 BHMdan oshmasligi, ya’ni qariyb 20,6 million so‘mgacha bo‘lishi belgilangan. Mazkur qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun tatbiq etilishi ayniqsa ahamiyatli. Bu nafaqat ijtimoiy himoya, balki yoshlarning bilim olishi uchun yaratilayotgan mustahkam tayanchdir. Ayniqsa, kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun bunday yordam ta’lim yo‘lidagi eng katta to‘siqlardan biri bo‘lgan moliyaviy masalalarni yengillashtiradi. Natijada ko‘plab yoshlar o‘qishni davom ettirish, kasb egallash va kelajak sari dadil qadam tashlash imkoniga ega bo‘ladi. Bir tomondan, mehnat tajribasiga ega xotin-qizlar uchun oliy ta’lim eshiklari keng ochilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan talabalarning kontrakt xarajatlarini qoplash orqali yoshlarning ta’lim olishiga ko‘mak berilmoqda.

Nodira MANSUROVA,
TDIU katta o‘qituvchisi

	"A" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Meksika							1	11-iyun	23:55	Meksika – JAR	...
	JAR							2	12-iyun	07:00	J.Koreya – Chexiya	...
	Janubiy Koreya							25	18-iyun	21:00	Chexiya – JAR	...
	Chexiya							28	19-iyun	06:00	Meksika – J.Koreya	...
								53	25-iyun	06:00	Chexiya – Meksika	...
								54	25-iyun	06:00	JAR – J.Koreya	...
	"B" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Kanada							3	12-iyun	23:55	Kanada – Bosniya va G.	...
	Bosniya va Gersegovina							8	13-iyun	23:55	Qatar – Shveysariya	...
	Qatar							26	18-iyun	23:55	Shveysariya – Bosniya va G.	...
	Shveysariya							27	19-iyun	03:00	Kanada – Qatar	...
								51	24-iyun	23:55	Shveysariya – Kanada	...
								52	24-iyun	23:55	Bosniya va G. – Qatar	...
	"C" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Braziliya							7	14-iyun	03:00	Braziliya – Marokash	...
	Marokash							5	14-iyun	06:00	Gaiti – Shotlandiya	...
	Gaiti							30	20-iyun	03:00	Shotlandiya – Marokash	...
	Shotlandiya							29	20-iyun	06:55	Braziliya – Gaiti	...
								49	25-iyun	03:55	Shotlandiya – Braziliya	...
								50	25-iyun	03:55	Marokash – Gaiti	...
	"D" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	AQSH							4	13-iyun	06:00	AQSH – Paragvay	...
	Paragvay							6	14-iyun	09:00	Avstraliya – Turkiya	...
	Avstraliya							32	19-iyun	23:55	AQSH – Avstraliya	...
	Turkiya							31	20-iyun	09:00	Turkiya – Paragvay	...
								59	26-iyun	07:00	Turkiya – AQSH	...
								60	26-iyun	07:00	Paragvay – Avstraliya	...
	"E" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Germaniya							10	14-iyun	22:00	Germaniya – Kyurasao	...
	Kyurasao							9	15-iyun	04:00	Kot-d'Ivuar – Ekvador	...
	Kot-d'Ivuar							33	21-iyun	01:00	Germaniya – Kot-d'Ivuar	...
	Ekvador							34	21-iyun	05:00	Ekvador – Kyurasao	...
								55	26-iyun	01:00	Kyurasao – Kot-d'Ivuar	...
								56	26-iyun	01:00	Ekvador – Germaniya	...
	"F" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Niderlandiya							11	15-iyun	01:00	Niderlandiya – Yaponiya	...
	Yaponiya							12	15-iyun	07:55	Shveysiya – Tunis	...
	Shveysiya							35	20-iyun	22:00	Niderlandiya – Shveysiya	...
	Tunis							36	21-iyun	09:00	Tunis – Yaponiya	...
								57	26-iyun	04:00	Yaponiya – Shveysiya	...
								58	26-iyun	04:00	Tunis – Niderlandiya	...



	"G" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Belgiya							16	15-iyun	23:55	Belgiya – Misr	...
	Misr							15	16-iyun	06:00	Eron – Yangi Zelandiya	...
	Eron							39	21-iyun	23:55	Belgiya – Eron	...
	Yangi Zelandiya							40	22-iyun	06:00	Yangi Zelandiya – Misr	...
								63	27-iyun	08:00	Misr – Eron	...
								64	27-iyun	08:00	Yangi Zelandiya – Belgiya	...
	"H" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Ispaniya							14	15-iyun	21:00	Ispaniya – Kabo-Verde	...
	Kabo-Verde							13	16-iyun	03:00	Saudiya Arabistoni – Urugvay	...
	Saudiya Arabistoni							38	21-iyun	21:00	Ispaniya – Saudiya Arabistoni	...
	Urugvay							37	22-iyun	03:00	Urugvay – Kabo-Verde	...
								65	27-iyun	05:00	Kabo-Verde – Saudiya Arabistoni	...
								66	27-iyun	05:00	Urugvay – Ispaniya	...
	"I" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Fransiya							17	16-iyun	23:55	Fransiya – Senegal	...
	Senegal							18	17-iyun	03:00	Iroq – Norvegiya	...
	Iroq							42	23-iyun	02:00	Fransiya – Iroq	...
	Norvegiya							41	23-iyun	05:00	Norvegiya – Senegal	...
								61	26-iyun	23:55	Norvegiya – Fransiya	...
								62	26-iyun	23:55	Senegal – Iroq	...
	"J" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Argentina							19	17-iyun	06:00	Argentina – Jazoir	...
	Jazoir							20	17-iyun	09:00	Avstriya – Iordaniya	...
	Avstriya							43	22-iyun	22:00	Argentina – Avstriya	...
	Iordaniya							44	23-iyun	08:00	Iordaniya – Jazoir	...
								69	28-iyun	07:00	Jazoir – Avstriya	...
								70	28-iyun	07:00	Iordaniya – Argentina	...
	"K" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Portugaliya							23	17-iyun	22:00	Portugaliya – Kongo DR	...
	Kongo DR							24	18-iyun	07:00	O'zbekiston – Kolumbiya	...
	O'zbekiston							47	23-iyun	22:00	Portugaliya – O'zbekiston	...
	Kolumbiya							48	24-iyun	07:00	Kolumbiya – Kongo DR	...
								71	28-iyun	04:30	Kolumbiya – Portugaliya	...
								72	28-iyun	04:30	Kongo DR – O'zbekiston	...
	"L" guruhi	O'	Y	D	M	T-N	O	№	Sana	Soat	O'yin	Hisob
	Angliya							21	18-iyun	01:00	Angliya – Xorvatiya	...
	Xorvatiya							22	18-iyun	04:00	Gana – Panama	...
	Gana							45	24-iyun	01:00	Angliya – Gana	...
	Panama							46	24-iyun	04:00	Panama – Xorvatiya	...
								67	28-iyun	02:00	Panama – Angliya	...
								68	28-iyun	02:00	Xorvatiya – Gana	...

Murojaat

Xokkeychi sportchilarimizga qachon e'tibor qaratamiz?

Sportchilarimizning jahon miqyosidagi musobaqalardagi yutuqlari ortib borayotgani barchamizni quvontirib, g'urur bag'ishlaydi. Mamlakatimizning turli hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham muz saroylari barpo etildi va yangilari qurilmoqda. Xokkey uchun ham maxsus uskunalar, ekipirovkalar olib kelinib, tajribali murabbiylar bilan ta'minlanmoqda. Natijada yurtimizda tobora ommalashib borayotgan sportning bu turida ham yurtdoshlarimiz muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xossatan, yosh xokkeychilarimiz xalqaro musobaqalarni Osiyo va Okeaniya chempio-

asosiylari quyidagilardir: oyoqqa mukammal mos keladigan, uning bilagiga zo'r tayanch bo'ladigan poyabzallarga o'rnatilgan konkilar; o'yinchi tanasini to'qnashuvlar yoki shayba zarbalari natijasida bo'ladigan asoratlardan saqlashga oid shlem; tanani himoya qiluvchi maxsus kiyimlar – qo'lqop, niqob, rakushka(chov himoyasi), og'iz himoyachisi(kara); material, tutqichi, qattiqligi, shakli va ilgakning egiluvchanligini e'tiborga olgan holda foydalaniladigan klyushka va shu kabilar. Ko'rinish turibdiki, xokkey bilan shug'ullanish uchun ma'lum sarf-xarajatlarni amalga oshirish kerak. Shuning uchun bu sport turi qimmat. Bu ayniqsa, bolalarda bilinadi. Chunki ularning tez o'suvchanligi e'tiborga olinsa, ekipirovka kichik, tor kelib qoladi. Natijada ularni 1-2 yilda yangilab turish zarur bo'ladi.

mashq, musobaqalarda qatnashish uchun ko'p vaqt ajratish zarur. Odatda trenirovka, musobaqalar deyarli har kuni amalga oshiriladi. Buning uchun vaqtni belgilash arenalari, sport zallari ijarasi bilan bog'liq bo'lgani uchun mashq o'tkazish jadvali o'zgarib turadi. Ba'zida mashg'ulotlarni soat 7-8 da yoki 21-22 oralig'ida o'tkazishga to'g'ri keladi. Xorijdagi musobaqalarga tayyorlanish esa bir oy va undan ortiq vaqt talab etadi.

Hozir xokkey jamoalarimiz o'yinchilari voyaga yetib, 18 yoshdan oshdi. Ularning oldida kasb tanlash, mehnat faoliyatini boshlash, moliyaviy jihatdan o'zini va kelgusida oilasini moddiy ta'minlash masalasi kelib chiqmoqda. Biroq ularning bo'sh vaqtlari tizimlashtirilmagani o'qish, ishga joylashish masalasini qiyinlashtirmoqda. Bu vazifani hal etishda taklif sifatida jamoa

Zamon shiddat bilan rivojlanishi nafaqat o'smirlarning texnika va texnologiyalarga qiziqishi ortishiga sabab bo'lmoqda, balki qiziqishlarining turlari ham ortib bormoqda. Bular ichida foydali mashg'ulotlar qanchalik ko'p bo'lmasin, zararli va yoshlar ongini buzuvchi odatlar ham yetarlicha. Ijtimoiy tarmoqlar esa o'zansiz dengizga o'xshaydi, siz istagan va istamagan narsalarning bari shu yerda.

O'smir va yoshlar o'rtasida zararli moddalar iste'moli ham turli zamonaviy ko'rinishda kirib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida bunday moddalarning turlari kamroq va tanlov imkoniyati deyarli yo'q edi. O'sha paytlari yoshlar o'rtasida poyabzal krem va yelim hidlari orqali arzon sarxushlik "trend"ga aylangan. Hozirgi kunda bularning nomi, turlari, ko'rinishi juda ko'p. Elektron sigaretalar, psixotrop, sintetik dori vositalari nomini sanasak sanog'iga yetishimiz qiyin.

Bizda ahvol qanday, farzandlarimiz xavfsizmi?

Maktablar atrofida ham mana shunga o'xshash sintetik dori vositalarini turli xil shirinlik va boshqa ko'rinishlarda sotish va tarqatish holatlari tez-tez uchramoqda. Masalan DXX Toshkent viloyati boshqarmasi va viloyat bojxona boshqarmasi bilan hamkorlikda shu yilning 7-yanvar kuni o'tkazilgan tadbir natijasida Andijon viloyatida yashovchi 4 nafar shaxsdan iborat jinoiy guruh tomonidan poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumanidagi ijaraga olingan xonadondan tarqatish maqsadida tayyorlangan 688 gr va telefonlaridan 284 ta yashirin manzilga ko'milgan 284 gr gashish narkotik vositasi topilib, tegishli tartibda rasmiylashtirildi.

Eng achinarlisi, reytdavomida qayd etilgan manzillarning aksariyati poytaxt maktablari yaqinida joylashgan bo'lib, narkotik moddalar "Choco-Pie", "Pankie" va shunga o'xshash shirinliklar ichiga yashirilgan va maktab o'quvchilari ushbu narkotiklarni tasodifan topib olishi uchun ochiq hududlarda qoldirilgan. Aniqlangan holat bo'yicha yuqorida keltirilgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 273-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilgan.

Bundan tashqari, reydnatijasida ikki nafar fuqaro maktab o'quvchilariga narkotik sotayotgani aniqlanib, ushbu vositalar musodara qilingan. Shuningdek, ikki nafar 9-sinf o'quvchi qizlarida ham narkotik modda borligi aniqlangan.

Umumiy holat qanday?

O'tgan yili poytaxtda 1,5 mingdan ortiq narkotikka ruju qo'ygan shaxslar rasman ro'yxatga olingan. Eng achinarlisi, "soya"da bo'lgan giyohvandlarning soni bundan ham ko'p. Ularning aksariyati yoshlar. Ular narkotik uchun oyiga o'rtacha 20–25 million so'm sarflayapti. Giyohvand mablag' topish ilinjida jinoyatga qo'l urishi tabiiy. O'tgan yili respublika bo'yicha 64 nafar shaxs giyohvand modda ta'sirida jinoyat qilgan, uning uchtdan bittasi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.



Aytib o'tish joizki, respublikamizda xokkey bilan shug'ullanish 2016-yildan boshlangan. Avvallari mavjud bo'lgan yagona "Alpomish" nomli muz arenasi buzib tashlangan. Toshkentda tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Next" muz maydonida ota-onalar va sport mutasaddilari tash-

abbusi bilan boshlang'ich maktabni bitirgan bolalar uchun xokkey bilan shug'ullanuvchi havaskor jamoa tashkil etilgan edi. Avvaliga yosh xokkeychilarning shug'ullanishlari bilan bog'liq sarf-xarajatlari asosan ota-onalar tomonidan qoplangan bo'lsa, keyinchalik davlat tomonidan qoplanadigan bo'ldi. Natijada bugunga kelib ushbu jamoa asosida "Binokor", "Humo", "Tashkent select" jamoalari tashkil topdi. "Tashkent select" jamoasi Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston chempionatida qatnashib, o'quv va mahoratini oshirib bordi. Yuqorida qayd etilgan jahon chempionatida qatnashayotgan terma jamoamiz a'zolari ushbu jamoalar o'yinchilaridan iborat. Xulosa shuki, mamlakatimizda xokkey tobora ommalashib bormoqda. Bu xokkey musobaqalarida arenalarning muxlislar bilan to'layotgani, xokkey maktablariga qatnashayotgan yoshlarning soni ortib borayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Xokkeyni yanada rivojlantirish uchun quyidagi ayrim masalalarga e'tibor qaratmoq lozim. Hozircha O'zbekistonda xokkey bo'yicha chempionatni tashkil qilish uchun jamoalar soni yetarli emas. Kuchli raqiblar bilan "olish-masdan" zarur mahoratga ega bo'lish qiyin. Bu borada "Tashkent select" jamoasining Qozog'iston va Qirg'iziston chempionatida qatnashayotganligi ijobiy natija berayotgan edi. Biroq joriy yilda bunday turnirda qatnashish uchun mablag' ajratilmagani ko'zlangan natijalarga erishishga to'sqinlik qiladi. Fikrimizcha, xokkey bo'yicha yetakchi jamoalar bazasida stajirovkalar amalga oshirish, ular bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiq. Xokkeychiga yetakchi o'yinchi bo'lish uchun tinmay harakat qilish,

a'zolari uchun har qanday mehnat faoliyatida qo'llashga imkon beruvchi AT texnologiyalarini, xorijiy tillarni bepul o'rganish kurslari tashkil etilsa foydali bo'lar edi. Xokkeychilarni qo'llash, rag'batlantirish uchun summasi katta bo'lmagan pulni berishda ham uzilishlar kuzatilmoqda. Bizningcha, mahoratli xokkeychilarni sport unvonlari(sport razryadlari, sport ustasi kabi) bilan taqdirlashga ham kam e'tibor berilmoqda. Shuning bilan birga xokkey bilan muntazam shug'ullanmoqchi bo'lganlar uchun talablar miqdori, xokkeychilarning kelajagi haqidagi ma'lumotlar yetarli emas. Qayd etilgan masalalarda aniqlik bo'lmagani uchun ba'zi xokkeychilarda tushkunlik, sportni tashlab ketish kayfiyati vujudga kelmoqda. Ayrim xokkeychilar jamoadan ketib, boshqa mehnat faoliyatini boshlamoqda (bu ma'lumotlar muallifning kuzatuv, tajribasi asosida keltirilmoqda). Xulosa qilib aytganda, respublikamizda xokkeyning rivoji bilan bog'liq yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p. Mutasaddi tashkilotlar bunday masalalarni yechishga jiddiy e'tibor qaratadilar deb umid qilamiz. Natijada bir necha yillar davomida mashaqqatli mehnat asosida yetishib chiqqan o'smir xokkeychilari-miz jahon chempionatlarida vatanimiz sharafini legionerlarni jalb qilmagan holda o'zlari himoya qiladilar deb ishonamiz. Bunda yurtimizda tobora ommalashib borayotgan xokkey rivojiga davlat strukturalari bilan birga, xokkey rivojlangan mamlakatlardagi kabi yuridik va jismoniy shaxslar ham o'z hissalarini qo'shsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda faollik ko'rsatayotgan firma, kompaniya, tashkilotlar rag'batlantirilsa, masalan, tovarlarini reklama, eksport, import qilishda, kredit olishlarida imtiyozlar berilsa, bu ishlarni amalga oshirish yanada jadallashgan bo'lardi. Bizningcha, hukumatimiz, xokkey federatsiyasi bu va shu kabi muammolarni hal etishda faollik ko'rsatib, yurtimizda sportning bu turi rivojiga munosib hissa qo'shishlari lozim.

Bahodir YO'LDOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi,
xokkeychining buvasi

natida qatnashishdan boshlagan edi. Ular 2023-yili Ulan Batorda – Mo'g'uliston, Eron, Turkmaniston, Tailand, 2024-yili Toshkentda – Malayziya, Indoneziya, Hindiston, Quvayt, Tailand, Mo'g'uliston, Birlashgan Arab Amirligi, Turkmaniston terma jamoalari bilan bahslashib, birinchi o'rinni egallagan holda Jahon chempionatida qatnashishga yo'llanma olgandi. 2025-yili Bangkokda bo'lib o'tgan jahon chempionatida Turkmaniston, Janubiy Afrika Respublikasi, Bosniya-Gersegovina, Tailand, Lyuksemburg terma jamoalaridan ustun kelib, bir divizion yuqoriga ko'tarilishga muvaffaq bo'lishdi. 2026-yili Gongkongda bo'lib o'tgan jahon chempionatida raqiblari bo'lmish Tailand, Shimoliy Irlandiya, Bolgariya, Turkiya, Isroil terma jamoalarini mag'lubiyatga uchratib, birinchi o'rinni egallagan holda yana bir divizion yuqoriga ko'tarildi. Ko'rinish turibdiki, natijalar quvonarli.

Xokkey bilan shug'ullanish uchun, avvalo, muz maydonlari, sport uskunalar, trenajyorlar kerak bo'ladi. O'yin davomida xokkeychilar katta tezlikda konkida uchadilar, keskin burilishlar qiladi, kuch ishlatish usullarini qo'llaydi. Shayba maydon bo'ylab shiddat bilan uchadi. Sportchilar bir-biri bilan to'qnashishi, yiqilishi, klyushka, konkilar ostiga tushib qolishi mumkin. Xokkeychi tezlikni o'zgartirishi, fintlarni qo'llashi, shayba bilan tryuklarni amalga oshirishi, yakka tartibda kuch ishlatishi, zarbalar berish va shu kabi boshqa usullardan foydalanishi kerak. Qayd etilganlardan o'yinda xokkeychining xavfsizligini ta'minlash muhim ekani kelib chiqadi. Buni amalga oshirish uchun esa maxsus kiyim-bosh va jihozlar – ekipirovkadan foydalaniladi. Ularning



YOSHLAR ALKOGOLNI KAM ISTE'MOL QILMOQDA, AMMO...

Shu yildan boshlab narko ekspress-testlardan ommaviy foydalanishga o'tilishi belgilandi. Giyohvandlikka nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarida alohida shtat tashkil qilindi. Shuningdek, hokim, OTM rektori, texnikum va maktab direktori o'rinbosarlaridan biri ham bu yo'nalishga mas'ul etib belgilanadi.

Giyohvandlarni davolashga eng kamida to'rt oy vaqt talab etiladi. Mutasaddilarga xususiy sheriklik asosida aholiga narkologik xizmat ko'rsatish bo'yicha qaror loyihasini kiritish topshirildi.

O'zbekistonda maktab o'quvchilari va talabalar narkotik testdan o'tkaziladi

Tekshiruvlar mahalliy ishlab chiqarilgan testlar yordamida amalga oshiriladi. 2025-yil 3-noyabrda "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar" to'g'risidagi Prezident farmoniga ko'ra, mahalliy test "poloska"lar yaratilgan. Tahlil so'lak orqali aniqlanadi va natija 3 daqiqada chiqadi. Hozir 16 ta narkotik turlariga nisbatan shunday testlar ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, hatto soch tolasidan narkotik qabul qilinganini aniqlash mumkin bo'lgan apparat hozir Sog'liqni saqlash vazirligida registratsiyadan o'tmoqda va aprobatatsiyadan so'ng iyun oyidan ommaviy ishlab chiqarish boshlanishi ma'lum qilindi. Testlar sentabr oyidan boshlab maktab hamda universitetlarda keng qo'llanila boshlaydi.

Rostan yoshlar narkoman va piyonistami?

Zumerlar milleniallarga nisbatan kamroq alkogol iste'mol qiladi. Agar 2001-yili 18–34 yoshdagilarning 72 foizi muntazam alkogol iste'mol qilgan bo'lsa, 2023-yili bu ko'rsatkich 62 foizni tashkil etgan. Bunga asosiy sabab – sog'lom turmush tarzining ommalashuvi va trendga aylanayotgani.

1980-yildan oldin tug'ilganlar bir shisha vino uchun kattaroq pul sarflashga tayyor. Yoshlar kam alkogolli yoki umuman alkogolsiz ichimliklarni tanlayapti. Shu tufayli dunyoda kokteyl, yengil vino, pivo va sidrlar savdosi o'smoqda.

Z avlod ichimlik qayerda va qanday ishlab chiqarilgani, qanday mahsulotlardan foydalanilganini ham chuqur tekshirishadi. Kamroq, qimmat, sifatli alkogollarni ichish yoki umuman ichmaslikni tanlashmoqda.

So'nggi global tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 20 yil ichida yoshlar orasida ichish sezilarli kamaygan.

Masalan, 18–34 yoshda ichuvchilar ulushi taqriban 72 % dan 50 % ga tushgan.

Trendlarning sog'lom turmush tarziga ta'siri

Bugungi yoshlar fitnes, dieta, ruhiy salomatlikka ko'proq e'tibor bermoqda. Oldin alkogol ichish ijtimoiylashish sifatida qaralgan bo'lsa, hozirga kelib uning o'rnini onlayn muloqot egallamoqda. Yoshlar jamoaviy kechalardan ko'ra yugurish, yoga, sport mashg'ulotlari, toqqa tirmashib chiqish kabi haqiqiy hayotga bog'lovchi mashg'ulotlar va jamoaviy yumushlarni ustun ko'rishmoqda.

JSST va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 15 yoshli o'smirlarning taxminan 60 foizi hayotida kamida bir marta ichgan, 38 foizi oxirgi oyda ichgan, 22 foizi kamida 2 marta mast bo'lgan.

Shunda ham bu ko'rsatkich so'nggi yillarda alkogol iste'moli pasayayotganini ko'rsatadi.

O'rnini nima bosyapti?

Elektron sigaretalar(vape) iste'moli oshmoqda. 2025-yili dunyoda taxminan 129 million foydalanuvchi aniqlangan. Masalan, Yevropada ichish kamaydi, elektron sigaretalarga talab oshdi. JSST yoshlar marketing orqali elektron sigaretalarga jalb qilinayotganidan ogohlantirgan. Bu esa nikotinga bo'lgan qaramlik oshishiga sabab bo'lmoqda.

Psixotrop dorilarga nisbatan talab ham qisman oshgan. Ba'zi davlatlarda antidepressant va "anxiety meds"(xavotirni kamaytiruvchi dorilar) iste'moli oshgan, lekin bu ko'proq tibbiy trend, ko'ngil ko'taruvchi vosita emas.

Narkotiklar bilan bog'liq 2025-yildagi tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar orasida narkotik iste'moli pastligicha qolmoqda, ammo ayrim og'ir moddalar(geroin, kokain)ga talab biroz oshgan, "Hamma narkotikka o'tyapti" degan stereotip noto'g'ri. Asosiy o'rinbosar mahsulotlar alkogolsiz ichimliklar, ya'ni alkogolsiz pivo, vino, kokteyllar, vitaminli energetik ichimliklar, turli xildagi smuzi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ichimliklar.

Qo'shni davlatlarda ahvol qanday?

O'smirlar(taxminan 13–18 yosh) orasida alkogol, sigareta va narkotik moddalar iste'moli bo'yicha qo'shni davlatlar statistikasini bilish uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti(WHO) va UNICEF tashkilotlari hisobotlariga tayanamiz.

Tamaki mahsulotlarini chekish:

- **Qozog'iston:** o'smirlarning taxminan 8–12 foizi muntazam yoki vaqti-vaqti bilan chekishini aytgan.
- **Qirg'iziston:** 6–10 % atrofida.
- **Tojikiston:** 3–7 % (nisbatan past).
- **Rossiya:** 15–20 % gacha (yuqoriroq ko'rsatkich). O'g'il bola o'smirlar orasidagi ko'rsatkich qizlarga qaraganda ancha yuqori.

Alkogol iste'mol qilish:

• **Rossiya:** o'smirlarning 20–30 foizi kamida bir marta alkogol iste'mol qilgan.

- **Qozog'iston:** 15–25 %.
- **Qirg'iziston:** 10–20 %.
- **Tojikiston:** 5–10%.

Ushbu ma'lumotlar asosan "sinab ko'rish"ga oid ko'rsatkich, ammo ayrim hududlarda muntazam iste'mol qilish ham uchraydi.

• **Rossiya:** o'smirlarning 5–10 foizi hayotida bir marta bo'lsa-da, narkotik modda sinab ko'rganini aytgan.

• **Qozog'iston va Qirg'iziston:** 3–7 % atrofida.

- **Tojikiston:** 1–3 %.

O'smirlar o'rtasida eng ko'p iste'mol qilinadiganlari – kanabis(giyohvand o'simliklar) va ba'zi sintetik moddalar.

Davlat	Alkogol (%)	Narkotik (%)
O'zbekiston	6–10	1–2
Qozog'iston	20–27	4–6
Qirg'iziston	15–22	3–5
Tojikiston	5–9	1–3
Ozarboyjon	10–15	2–4

Ushbu raqamlar hayot tarzi, fuqarolarning qadriyatlariga qarab turli davlatlarda turli ko'rinishda bo'ladi.

Bunday moddalar inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bolalar psixologi Komila Sultonovanadan aynan o'smir bolalar va yoshlar bilan bog'liq bunday holatlarning ularning psixologiyasiga ta'siri haqida so'radik.

– Qabulimga kelgan aksariyat bolalarning asosiy muammosi oilada e'tibor yetishmasligi bilan bog'liq, – deydi Komila Sultonova. – Narkotik, sintetik, umuman, organizmni bo'shashtiruvchi vositalar tabiiy holatda miya faoliyatiga, umuman insonning hayoti, psixikasi va butun organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab inson real hayotdan qochishni boshlaydi. Haqiqiy hayotdagi muammolardan qo'rqadi. Har safar qiyinchilikka uchraganda faqatgina dori ichib "stanga qotish" deb ataladigan holatga kirishga harakat qiladi. Bularning hammasi bir xil emas. Masalan, aktivlashtiradigan, tetiklashtiradigan, bir necha kun uxlamasdan yurishga kuch beradigan sintetik moddalar ham bor.

Ushbu moddalarning yoshlar hayotiga kirib kelishida ijtimoiy-siyosiy omillar ham mavjud. Qaysidir katalar uni targ'ib qiladi va yoshlar hisobidan pul ishlaydi. Buning uchun maxsus targ'ibotchilar bor. Uzoq yillardan beri dunyo bo'ylab narkotrafikka qarshi siyosiy kurashlar olib boriladi. Tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkin, sog'lom oilada voyaga yetayotgan, yetarlicha diqqat-e'tibor ko'rgan bolalarda bunday ehtiyoj kam kuzatiladi. Chunki bunday bolalar ota-onasi bildirayotgan ichonch tuyg'usi tufayli

ham o'z fikrini bimalol bayon qila oladi. Odatda to'liqsiz oilada voyaga yetayotgan, qiynalgan oila farzandlari erta yoshdan pul topish maqsadida ko'chaga chiqib ketadi. Bu ularni to'g'ri va noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bu degani faqat shunday oilalardagina bunday holat uchraydi degani emas, o'ziga to'q, ota-onasi ziyoli oila farzandlarida ham uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda ota-ona zudlik bilan narkologga murojaat qilishi va psixolog bilan ham birgalikda ishlashi lozim. Shifokor insonning tanasi uchun javob bersa, psixolog ushbu hodisa qaytarilmasligi uchun ruhiyati bilan ishlaydi.

Ushbu vositalar organizmga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Sintetik vositalar, alkogol, narkotik moddalar va elektron sigaretalar o'smir organizmiga juda kuchli zararli ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'smirlik davrida organizm, ayniqsa miya va asab tizimi hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Sintetik moddalar, eng avvalo, miya faoliyatiga zarar beradi. Ularda fikrlash, xotira, diqqat jamlolmaslik, hissiyotlarini boshqarish qobiliyati pasayadi. Ba'zi hollarda tajovuzkorlik, qo'rquv, depressiya, vahima yoki ruhiy qaramlik paydo bo'lishi mumkin. Kuchli sintetik moddalar yurak faoliyatini buzib, hushdan ketish yoki o'lim holatlariga ham olib keladi. Alkogol esa jigar, yurak va asab tizimiga salbiy ta'sir qiladi. O'smir organizmida alkogolga chidamlilik past bo'lgani uchun zaharlanish tezroq yuz beradi. Bundan tashqari, alkogol o'qishga qiziqishni kamaytiradi, xulq-atvorni o'zgartirib, agressiyani kuchaytiradi. Narkotik moddalar organizmda tez va kuchli qaramlik hosil qiladi. Inson asta-sekin oddiy hayotdan uzoqlashib, faqat ushbu moddaga ehtiyoj sezadigan bo'lib qoladi. Ular nafas olish tizimi, yurak qontomir faoliyati va psixikaga juda katta zarar yetkazadi. Elektron sigaretalar ko'pchilik o'ylagandek zararsiz emas. Ularning tarkibidagi nikotin miya rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Nafas yo'llari zararlanib, o'pka faoliyati yomonlashadi va nikotinga qaramlik paydo bo'ladi. Ayrim noqonuniy veyplar tarkibida sintetik yoki narkotik moddalar ham uchrash mumkin, bu esa xavfni yanada oshiradi. Eng xavfli tomoni – bu vositalar o'smirlar nafaqat sog'lig'iga, balki ruhiy holati, o'qishi, oilaviy munosabatlari va kelajagiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Shodiyona XUSHMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Xalqaro sharh

KIBORLAR JANGI

O'tgan haftaning eng e'tiborli voqealaridan biri Ukraina Respublikasi prezidenti Volodimir Zelenskiyning Rossiya Federatsiyasi prezidenti Vladimir Putinga ochiq xat yozishi bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Xalqaro diplomatik munosabatlarda davlat rahbarlarining bir-birlariga ochiq maktub yo'llashi kamdan-kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. Nega desangiz, davlatlararo munosabatlar ko'pincha e'tibordan panaroqda mutasaddi diplomatlar orqali amalga oshiriladi. Ba'zan davlat rahbarlarining o'zlari yuzma-yuz uchrashib, davlatlararo aloqalarini birgalikda belgilab oladilar. Shu ma'noda, Zelenskiyning ochiq xati bevosita Putinga qaratilmaganga o'xshaydi. "Reuters" axborot agentligining manbalarga tayanib ma'lum qilishicha, shaxsiy uchrashuv o'tkazib, sulh tuzish taklifi, birinchi navbatda, Rossiya elitasi, ishbilarmonlari va Ukrainaning g'arblik ittifoqchilarining e'tiboriga qaratilgan. Zelenskiyning fikricha, iqtisodiyotdagi muammolar tufayli Rossiya-da tobora ko'proq nufuzli odamlar urush tugashini istamoqda. Putin esa Ukraina prezidentining ochiq xatiga javoban muzokaralardan yana bir bor bosh tortdi va tinchlik shartlari allaqachon AQSH prezidenti Tramp bilan muhokama qilinganini bildirdi, deyiladi agentlik tarqatgan xabarda. Bizning fikrimizcha, ochiq xatning yozilishiga asosiy sabab shuki, bir necha yillardan buyon ushbu har ikki sobiq sovet respublikalari orasidagi munosabatlar batamom buzilib, o'zaro aloqaning boshqa biror yo'liga o'rin qolmadi. Ayrim manbalarning xabariga ko'ra, qanaqadir parda ortidagi yashirin muloqotlar olib borilmoqda ekan, ammo bu ishonchli ma'lumot bo'lmay, ko'proq istak ma'nosidagi taxminiy gaplarga o'xshab ketadi. Bu boradagi achinarli voqelik shundan iboratki, hozir har ikki davlat bir-biriga nisbatan urush holatida turibdi. Garchand Moskva buni "maxsus harbiy amaliyot" deb atayotgan bo'lsa-da, davom etayotgan janglarda chinakam katta urush alomatlari mavjud. Aytaylik, urushning ko'p yillardan buyon davom etayotgani, yuz minglab odamlarning qurbon bo'lgani va ilg'or harbiy texnologiyalar qo'llanayotgani katta urushning ochiq belgilaridir. Masalan, o'tgan may oyi davomida har ikki tomondan 40–50 mingdan ziyod odam qurbon bo'lgan. Holbuki, o'n yil davom etgan "afg'on" urushida 15 mingdan sal ortiq askar halok bo'lgandi. Qurbonlarning bu darajada ko'payishining asosiy sababi: janglarda zamonaviy urush texnologiyalari qo'llanmoqda. Odatda, an'anaviy urushlarda safdan chiqarilgan askarlarning taxminan uchdan ikki qismi yarador bo'lib, bir qismi halok bo'lardi. Zelenskiy maktubida yozishicha, hozir halok bo'layotganlar soni jangchilarning 65 foizidan ham ko'proq qismini tashkil qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, qurbonlarning umumiy nisbati ikki baravar ko'paygan. Zamonaviy qurollar askarlarning tirik qolishiga hech qanday imkon qoldirmayapti. Dron hujumiga uchragan jangchining tirik qolish ehtimoli yo'q darajada. Ilgarigi janglarda askarlar panaga bekiniy yoki bo'lmasa janggohdan qochib jon saqlab qolishi

mumkin bo'lgan. Hozir esa ortga chekinib bo'lsa ham tirik qolish mushkul. Bir tomondan yo'lni to'suvchi otryadlar, ikkinchi tomondan dushman dronlari o'rtasida qolgan askarlar muqarrar o'limga mahkum etilmoqda. Shu ma'noda, zamonaviy urushlar tobora shafqatsiz, tobora dahshatli tus olmoqda.

Urushlarning bunday beshafqat mazmun kasb etishi ularda ishtirok etayotgan insonlar ongiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda vatan himoyasi yo'lida jangga kirgan askarlar bilan bosqin uyushtirayotgan tomon jangchilari ruhiyati orasida katta farq paydo bo'ldi. Ukrainalik jangchilar bugun urush marralarini jon-jahdlari bilan



TAMADDUNLAR TO'QNASHUVI

himoya qilib, xuddi kiborlardek jang qilmoqdalar. Birgina Malaya Tokmachka qishlog'ini zabt etish uchun bosqinchilar minglab askarlarini nobud qildilar. Shunda ham ular qishloqni to'la egallay olmadilar. Chunki ukrain dronlari bosh ko'targan tirik jon borki, omonlik bermayapti. Drona duch kelgan jangchilar hayoti esa muqarrar o'lim bilan yakunlanmoqda. Shu bois bo'lsa kerak, rus qo'shinlari Gulyar Pole yo'nalishidan o'zga boshqa birorta frontda sezilarli natijaga erisholmayapti. Putinning barcha yo'nalishlarda olg'a siljiyapmiz, degan iddaosi haqiqatdan yiroq gaplardan boshqa narsa emas. Haqiqiy voqelik shundan iboratki, rus armiyasi Ukrainada o'zi sira kutmagan qaqshatqich qarshilik bilan yuzma-yuz keldi. Uzog'i bilan bir oy ichida Ukraina masalasini hal qilamiz, degan dadil reja xomxayolga aylanadi. Aksincha, bugungi Ukraina qurolli kuchlari janglarda toblanib, dunyoning zarbdor armiyalaridan biriga aylandi. Hatto, uni kelajakda xuddi Turkiya armiyasi singari NATOning zarbdor kuchiga aylanadi, degan farazlar ham yo'q emas. Nima bo'lganda ham, ukrainlar bugun dunyoning ikkinchi kuchli armiyasi bilan tengma-teng jang qilmoqda. Bu borada ularga g'arb mamlakatlari yaqindan yordam berayotganligi ham katta sir emas. AQSH va Yevropaning fan-texnika yutuqlari asosida yaratilgan zamonaviy harbiy qurollar oldida rusalarning nisbatan eskirib qolgan jang vositalari ochiq yutqazmoqda. Masalan, keyingi kunlarda harbiy-iqtisodiy inshootlarga, Qirim yarimoroliga yo'nalgan transport vositalariga dronlar vositasida berilgan aniq zarbalarni rus havo mudofaa-si qaytarishga ojiz ekanligi bilindi va mamlakat iqtisodiyoti hamda logistik ta'minoti xatar ostida qoldi. Ayniqsa, Moskva hamda Leningrad viloyatlariga yo'naltirilgan havo hujumlari Kremlni g'oyat dovdiratib qo'ydi. Ana shunday mag'lublik vaziyatida Zelenskiyning Putinga teng darajada turib sulh taklif qilishi, tabiiyki, oqposhshoning qitig'iga tegdi. Buning ustiga Rossiya jamiyatida urushga qarshi kayfiyatlarining kuchaya borishi rus ma'murlarini chuqur xavotirga solmoqda. Endilikda Moskva uchun ikki yo'l qoldi: yo Ukraina bilan

sulhga rozi bo'lish, yoki mamlakatda umumiy safarbarlik e'lon qilish. Birinchi yo'l Putin uchun sharmandalik bo'lsa, ikkinchisi esa g'oyat xatarli tadbir hisoblanadi. Agar eslasangiz, 2022-yil kuzida qisman safarbarlik joriy etilganda, millionlab rossiyaliklar mamlakatni tark etib chet ellarga chiqib ketishgandi. Navbatdagi safarbarlik esa mamlakatda katta norozilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi tobora ayon bo'lib bormoqda. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, kelgusida rus ma'murlari Zelenskiyning sulh tuzish haqidagi taklifiga noiloj rozi bo'lsalar ajab emas.

ERKIN DUNYO & CHIRKIN DUNYO

Keyingi vaqtlarda Rossiya ommaviy axborot vositalari orqali bu borada g'alati fikrlar aytilmoqda. Jumladan, kutilmaganda Kreml nuqtayi nazarini targ'ib qiluvchi "Московский комсомолец" gazetasi o'zining bosh maqolasida urushdagi mag'lubiyatning foydasi haqida so'z ochib qoldi. Maqola muallifi Dmitriy Krasnovning yozishiga ko'ra, "... Rossiya tarixida urushlardagi mag'lubiyat doimo mamlakatning keyingi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan" emish. Uning aytishicha, aynan mag'lubiyatli urushlar va kamsituvchi sulh shartnomalari islohotlarga, yangiliklarga va g'alabalarga yo'l ochib bergan. "Ba'zan yirik geosiyosiy yutqaziqalar, yorqin g'alabalardan ko'ra ko'proq foyda beradi", deb yozadi Krasnov. Qaysidir ma'noda muallifning gaplarida jon borda tuyuladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushida yutqazgan Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya singari davlatlar urushdan keyin taraqqiyotning keng yo'liga chiqib olishgani tarixiy haqiqat. Ammo bunda bir omilni aslo nazardan qochirmaslik kerak: ular urushdan so'ng ichki avtokratik tuzumni buzib tashlab, demokratik boshqaruv tizimiga o'tishdi. Aytaylik, Rossiyada ham "sovuq urushdagi" mag'lubiyatdan so'ng demokratik boshqaruvga o'tish harakati bo'ldi. Ammo, millatchi shovinistlar va yangi paydo bo'lgan sarmoyadorlarning sa'y-harakati bilan demokratiya kurtak-

lari yulib tashlandi. Oqibat shu bo'ldiki, mamlakat asrlar davomida hukmronlik qilib kelgan boshqaruvning yakka-hokimlik (самодержавие) usuliga qaytib, mamlakat yana o'sha qoloq eski izga tushib qoldi. Rossiyadagi hozirgi vaziyat yana o'sha o'tgan XX asr boshlaridagi vaziyatni eslatayapti. Yana urush, yana tashqi-ichki dushman izlash, yana siyosiy quvg'inlar, mayda millatlarga past nazar bilan qarash va hokazo... Aytish mumkinki, o'tgan asrning 90-yillarida qisqa davom etgan erkinlik epkini ham o'zining yaxshigina ijobiy natijasini berdi. Rossiya XXI asrning boshlariga kelib yana kuchga to'ldi, iqtisodiyoti rivojlandi, pul-valyuta zaxirasi ko'paydi. Afsuski, rossiyaliklar bu yutuqlarning barisini Vladimir Putinning nomi bilan bog'lay boshladi. Natijada Putin shaxsiga ixlos kuchayib, oxir-oqibat Moskva yana o'sha eski yakkahokimlik tuzog'iga ilindi. Yutuqlardan boshi aylangan Putin kollegial boshqaruv tamoyilini buzib, qarorlarni yakka o'zi qabul qila boshladi. Mamlakat bosh qonunini oyoq'osti qilib prezidentlik muddatini bir necha marta cho'zishga erishdi. Ushbu voqealarning mantiqiy yakuni shu bo'ldiki, 2022-yil 24-fevral kuni qo'shni Ukraina davlatiga qarshi bosqinchilik urushini boshladi. Bunda Putin tomonidan qanaqa mash'um xatoga yo'l qo'yilgani endilikda tobora ayon bo'lib bormoqda. Bugungi kunlarda Rossiya jahonning ijtimoiy jihatdan eng qoloq mamlakatlari bilan hamkorlik qilishga majbur bo'lmoqda. To'g'ri, ular avtokratik uslublariga tayanib, qandaydir ma'noda iqtisodiy yutuqlarga erishgan bo'lishlari mumkin. Biroq ushbu mamlakatlarda inson huquqlari ta'minoti, siyosiy-ijtimoiy erkinliklar borasida jiddiy nuqsonlar borligi hech kimga sir emas. AQSHda hokimiyat tepasiga prezident Donald Trampning kelishi umri tugab borayotgan avtokrat hukmdorlarga yangi nafas bag'ishlagandek bo'ldi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, Amerika chuqur demokratik ildizlar bilan oziqlanadigan davlat. U yerda nima bo'lganda ham, hokimiyatlar mustaqilligi amal qiladi. Avtokratiya sari bo'ladigan harakatlarni tiyib, muvozanatga solib turuvchi mexanizmlar mavjud. Insoniyat o'z ijtimoiy taraqqiyotidagi muvaffaqiyatlarga behisob berilgan qon va qurbonlar evaziga erishgani tarixdan yaxshi ma'lum. Shubhasiz, erishilgan yutuqlar yana mustabidlarga qo'lga qaytarib berilmasligi kundek ayon. Zero, tarix g'ildiragini hech kim orqaga aylantirilmagan.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi



Inja tuyg'ular

CHIGAL CHORRAHALAR



Hayot – bu harakat. To‘xtash esa tugash demakdir. Hayotning oq va qora teskari yo‘llari bor. Ziddiyatli yo‘llarning bari ko‘ngildan o‘tadi. Zabt etilishi qiyin masofa – ko‘ngildan ko‘ngilgacha bo‘lgan masofadir. Bunda turli muyulishlar, har tarafga yo‘nalgan chorrahalar mavjud. Qaytish uchun birgina yo‘l – ko‘ngilni parchalashdir.

Har his – bir rishta. Har bir rish-ta qilday harir, tig‘day o‘tkir. Ba‘zilari uzilsa joning og‘riydi. Ba‘zilari uzilmay-di, xatolaring nishonasi o‘laroq, ko‘ksing-a qadalib turadi. Oqibati nima bo‘lishi-dan qat‘i nazar, rishtalar bog‘lanadi yoxud

tugatiladi. Har ikki holatda ko‘ngling yo qavaradi, yo quvonadi. Ko‘pchilik bil-maydiki, ko‘ngilda ularning vajlari emas, bosib o‘tilgan izlari yashaydi.

Mehr ziddiyatli yo‘llarning eng sharaflisi, rishtalarning avvalidir. Qalbingda

kurtak yoygan chechaklarning tashnaligi bir o‘tli qarash bilan qonadi. Gohida bir qatra mehrga umrimiz poyonigacha zo-riqib yashaymiz. Gohida bizni qurshab olgan muhabbatni payqamaymiz. Payqa-sak-da, oyog‘imizga urilgan tushov yang-lig‘ undan qochamiz. Ziddiyatlar silsilasi ana shu ikki nuqtada yuzaga keladi.

Hurmatini o‘rniga qo‘yganlarning nigohida butun dunyo borday, muhabbat bilan qarshilaysan. Samimiyat deb tal-pinganing, ba‘zan manfaatning ko‘zni qamashtiradigan jilvasi bo‘ladi. Yasama jilolarga ohanraboday muftalo bo‘la-san. Har nag‘masiga ergashib, injiqligi-ga shafolat qilasan. Poyiga ishonchingni to‘shaganlarning nigohi ortida manfaat yashiringanini qayerdan ham bilarding. Asliyatiga tortilgan kirpech ko‘tarilgan-da, yolg‘onni yer ko‘tararmidi? Maqsadli tutashgan yo‘lining bo‘linmog‘i muqarrar. Manfaatlarga to‘qnashgan chorrahada qizil chiroqlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Ikki o‘rtada qo‘yilgan har qanday chegara buziladi. Mehning, ishonching, o‘rni kel-sa, obro‘ng toptaladi yoki o‘zing uning borini toptab o‘tishga majbursan.

Ko‘ngilga yolg‘on orqali yetadigan ranjlar bor. Haqiqat mushtlarida ezi-lib uzilgan qanchadan qancha rishtalar

bor. Kimdir tap tortmay yolg‘on aytadi. Kimdir zaruriyatdan jim turadi. Haqiqat ochiqdanmas ekan, jim turish ham yolg‘on emasmi, aslida?

Xiyonat – eng buyuk yolg‘on. U sen ishongan dunyoning singan ovozi. Ichin-g-da uzilgan rishtaning chirsillashi. G‘azab-mi, nafratmi, yuragingni g‘ijimlab turgan panjalar orasida ezilasani. Ichingda yuza-ga kelgan alamnok tuyg‘ular po‘rtanasi bo‘g‘zingga qadaladi. Hayqirasani, ovoz-ing ichingdan chiqmaydi. Qay g‘amzada og‘riq yuragini ko‘ksidan yulib otishni eplaganki, sen uddalay olsang. Qo‘y, har kim o‘zi istagan manzilda, mayli, bor ko‘ngilda qo‘nim topsin. Kun kelib samimiyatingning qadriga yetganida, achinamanki, ortga qaytadigan yo‘llari bo‘lmaydi.

Ranjlarini ichingga yutma. Yo‘qsa, kun kelib og‘riqlaring vulqonday otila-di. Bu otashda xiyonatkorlar yuzi qaro bo‘lishi barobarida, o‘zing ham yonasan. Olov iztirobingga qo‘shib odamlarga nis-batan ishonchingni ham yoqadi. Oqibat-da ko‘ngling bir uyum qurumdan iborat samimiyating mozoriga aylanishi hech gap emas.

Ziddiyatlar sen uchun hayotning navbatdagi darsi. Chigal chorrahalar-da adashmasang bas. Chunki ba‘zi chor-rahalar bor, ulardan qaytib bo‘lmaydi. Oqni anglashing uchun qorani ko‘rishing kerak. Ammo qoralikka o‘rganib qolsang, hayotning oq ranglariga ham ishonmay qo‘yishing mumkin.

Sadoqat HAMROYEVA



Abdullayev Botir Baxtiyor o‘g‘lining 13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va meto-dikasi ixtisosligi bo‘yicha “Intelktual tizimlar vositasida talabalarining kasbiy tayyor-garligini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politehnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 18-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 4-uy.
Tel/faks: (72) 226-46-05, 226-45-47; e-mail: dgpi_info@edu.uz

Ochilova Go‘zal Aralovnaning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha “Globallashuv sharoitida milliy davlatchilik tafakkurini rivojlantirish zaruriyati (ijti-moiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertat-siyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Niyazova Gulnoraxon G‘ulomovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Xususiy di-skursning kognitiv va sotsiopragmatik aspektlari (ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar misolida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) disser-tatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 23-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Tadiyeva Durdona Oblokulovnaning 05.09.04 – Suv ta‘minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari ixtisosligi bo‘yicha “Oqova suvlarni tozalash inshootlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish” mavzusidagi(texni-ka fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko‘chasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz

Ahatqulov Bahridin Matlabovichning 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ix-tisosligi bo‘yicha “Zamonaviy biotexnologiyalar asosida kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini oshirish” mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 141001, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani,
Dahbed qo‘rg‘oni, Amir Temur ko‘chasi, 7-uy.
Tel/faks: (66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz

Turayeva Dilafruz Xolmurodovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha “Semiz bolalarda hepatobiliar tizim holatining o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kun soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 70-“a” uy.
Tel/faks: (66) 233-58 92, 233-79-03; e-mail: shodikulovagulandom@mail.ru

Turdiyev Shoxjaxon Shermamat o‘g‘lining 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlash-tirish hamda ishlatish ixtisosligi bo‘yicha “Geologik va gidrodinamik modellarni aniqlashtirish asosida olinishi qiyin bo‘lgan zaxiralarga ega neft konlarining ishlash samaradorligini oshirish (Sherkent neftgazkondensat koni misolida)” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O‘ZLIT-INEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqam-li ilmiy kengashning 2026-yil 16-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 233-66-36; e-mail: info@tsul.uz

Mirsagatova Dilorom Ubaydullayevnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Ingliz va o‘zbek til-larida temir yo‘l sohasiga oid terminlarning tarjima xususiyatlari” mavzusidagi(filologi-ya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01. Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizining 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Yevropa va o‘zbek nasrida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazining poetik talqini (F.Vyurtle, R.Godden, P.Qodirov, X.Sultonov asarlari misolida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengash-ning 2026-yil 19-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Islomov Ilhom Mustonovichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo‘yicha “Nasos stansiyalarining oqiziq tutuvchi suzuvchi moslamasini tako-millashtirishni asoslash” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy dara-jalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko‘chasi,
225-uy, 1-bino, 239-xona.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Tuyg'u

Ezgu niyatli shoir...



Onam bog'cha mudirasi bo'lganligi sabab xalq dostonlarini, ertag-u afsonalarni juda ko'p bilardi. Biz bolalar ana shu qiziq hikoyalarning xaridori edik. Ulardagi qahramonlarning jasorati, ajoyib sarguzashtlarini katta qiziqish, o'zgacha zavq bilan tinglardik. Ayniqsa, ertaklardagi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash bola qalbimizni junbishga keltirardi. Oxirida ezgulikning g'alabasini eshitgachgina xotirjam bo'lardik.

Onam har safar ertakni yakunlarkan, yaxshilikning hamisha g'olib ekanligi, inson doimo yaxshilik qilishga harakat qilishi lozimligini uqtirardi. Shu sabab bo'lsa kerak, qayerda ezgulikning qo'li baland kelsa quvonaman, ezgu niyatli insonlar bilan suhbatlashsam yengil tortaman. Ayniqsa, ezgulikni ulug'lovchi ijodkorlarning asarlarini sevib mutolaa qilaman. Ana shunday ijodkorlardan biri esa bugungi she'riyatimizda samarali ijod qilayotgan shoir G'ayrat Majiddir.

G'ayrat Majid haqida yozishga kirisharkanman, xayolimga "niyati qutlug' shoir" ta'rifi keldi. Ha, chindan ham, uning niyati ezgu, ijodkor qalbi hamisha boshqalarga yaxshilik istaydi. Shuning uchun ham shoir bir she'rida:

*Zamon ne, sen dilning zamonida bo'l,
Zabon ne, sen dilning zabonida bo'l.
Boshingga qismatning toshi yog'sa ham,
Hamisha yaxshilik tomonida bo'l.*

– deb yozadi. Shoir insonlarni qalb bilan yashashga chorlaydi, tilning dil bilan bir bo'lishi zarurligini har doim eslatadi. Qanday mashaqqat, qiyinchilik bo'lsa-da, insonning ezgulik tomonida turishi kerakligi, hech qanday sabab yaxshilik chegaralarini buzish uchun asos bo'lolmasligini ta'kidlaydi. Sirdan qaraganda, she'r oddiy, sodda, jimjimador tashbehlardan xoli ko'rinsa-da, uni yozish, undagi falsafani she'rxonga yetkazish uchun shoirga samimiy qalb, insoniy tuyg'ularga to'la yurak kerak. G'ayrat Majidda esa ana shunday hassos qalb bor.

Shoir Yaratganning asl manzili bo'lmish ko'ngilni ulug'laydi, insonlarni uni asrashga, avaylashga da'vat qiladi. Ko'ngilning to'kisligini esa komil iymonda ko'radi:

*Toza iymon birla ko'ngil bo'lgay but,
Dunyo-chun g'am chekmoq ishlarin unut.
Hazrat Navoiydan meros hikmat bu,
Ey do'st, tiling birla dilingni rost tut.*

Biz insonlar bu taloto'p dunyoda oxiri o'zimizga-da ayon bo'lmagan yumushlarimizni bitirish payida bo'lamiz, dunyoning adog'i yo'q kamlarini to'ldirishga harakat qilamiz. Ko'ngilni butlash, to'ldirishga kelganda esa vaqtimiz yo'qligi, ishlarimiz ko'pligini sabab qilamiz. Shoir esa ana shu yugur-yugurlar bilan chopayotgan olomonni dunyo uchun g'am chekmaslikka, iymonni mustahkamlashga chorlaydi va tiriklik vajida dunyoning chigal ko'chalarida kezayotgan insonlarga hazrat Navoiyning "so'z birla ko'ngulni rost tutish" lozimligi haqidagi hikmatini xotirlatadi.

G'ayrat Majid mumtoz adabiyot an'anasini yaxshi o'zlashtirgan va ularni she'rlarida mahorat bilan qo'llay oladigan shoir. Shuning uchun ham uning she'rlarida salaflariga xos teranlik va o'zgacha shukuh bor. Xususan, quyidagi she'rida mumtoz shoirlar ijodida bot-bot takrorlangan "o'zni tuzatish" g'oyasi ilgari suriladi:

*Dilni soflik bilan bezatmog'ing shart,
Senga ilhaqqa qo'l uzatmog'ing shart.
Noraso dunyoni tuzatmoq mahol,
Ey ko'ngil, o'zingni tuzatmog'ing shart.*

Shoir bandda insonning "inson" nomiga munosib bo'lishining ikki shartini ko'rsatadi. Birinchisi, dilni soflik bilan muzayyan etish bo'lsa, ikkinchisi ko'makka muhtoj kishilarga yordam berishdir. Bu fikrlarni shoir shunchaki nasihat mazmunida aytmaydi, balki fikrga shartlik ma'nosini yuklaydi. Bu esa odamiylikning bu ikki xislati ijodkor nazdida qanchalar yuqori turishiga ishora qiladi. Bandning keyingi misralarida esa shoir yana bir falsafani o'rta tashlaydi: dunyo – noraso, uni butkul to'g'rilashni esa inson o'zidan, o'z ko'ngilni rostdan boshlashi lozim. Shu o'rinda Shekspirning shoh asari hisoblangan "Hamlet" tragediyasidagi bosh qahramonning "Dunyo buzilgan – uni to'g'rilash uchun keldim" degan mashhur jumlasini yodga keladi. G'ayrat Majid Hamlet kabi dunyoni tuzatishga da'vo qilmaydi. Aksincha, insonning o'zini tuzatishini afzal biladi. Agar hamma o'z shaxsiyatini isloh qilsa, ko'ngilni soflik bilan to'ldirsa, bir-biriga ko'mak bersa, "noraso" dunyoning "raso"lanishiga ishonadi. Ana shu umidvorlik, ana shu ezgu niyat she'rdagi falsafiy musho-



hada jozibasining, she'r shukuhining ortishiga sabab bo'ladi.

Said Ahmad aytganidek, "Yomonga tug'ishgani ham begona, yaxshiga begona ham jigar". G'ayrat Majid uchun insonlarning ham, hayvon-u giyohlarning ham, tog'-u toshlarning ham begonasi yo'q. Shoir bir baland, birda past hayotda ko'ngilning ra'yiga qarab yashaydi. Faqat o'z ko'ngilning ra'yiga emas, o'zgalarning ham qalbini ehtiyot qiladi. Axir har tog'ni og'a, har may-sani singil deb, ularni e'zozlagan inson boshqacha bo'lishi mumkinmi?! Zero, bir she'rida aytganidek:

*Bir ish og'ir, biri yengil ko'rindi,
Ular orasinda ko'ngil ko'rindi.
Purviqor bul tog'lar og'amdek go'yo,
Har giyoh, har maysa singil ko'rindi.*

Dunyoning norasoligini anglagan shoir uning makrlari-yu makkorlari borligini ham yaxshi biladi va yurakni ulardan kelajak toshlardan, ta'na-yu dashnomlardan ogoh etadi. Ogoh etar ekan, unga o'zining hali bu dunyoda qiladigan vazifalari bisyorligini eslatadi:

*Makr to'la dunyo, sergakroq bo'lg'in,
Va barcha toshlarga tayyor tur, yurak.
Axir, mo'jizaga ko'mib olamni,
Baribir, baribir yashash kerak.*

Ko'rinadiki, shoir hayotni sevadi, uning har bir lahzasidan unumli foydalanishni istaydi va yurakni bu lahzalarni shunchaki emas, "mo'jizalarga ko'mib" o'tkazishga safarbar qiladi.

Zeboxon QOBILOVA,
Qo'qon universiteti ilmiy ishlar
va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
filologiya fanlari doktori, professor

Ehtirom

Ma'rifat targ'ibotchisi



Ta'lim fidoyisi Rashid Bo'ronov 1964-yil 7-oktabrda Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida tavallud topgan. Ustoz 1983-yili shu tumandagi 73-maktabni bitirgach, 1983–1985-yillari harbiy xizmatni o'tagan. 1986–1989-yillari turli korxonalarda mehnat qilib, hayotiy tajriba to'pladi.



1989-yil ustozim hayotida tub burilish davri bo'ldi: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix fakultetiga sirdan o'qishga kirdi va 73-maktabda tarix fani

o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyatini boshladi. Uning tashkilotchilik qobiliyati inobatga olinib, 1994-yili o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 1997-yili esa maktab direkto-

ri lavozimiga tayinlandi. 2014-yildan hozirga qadar o'zining sevimli kasbi – tarix fani o'qituvchisi sifatida faoliyatini davom ettirib, yosh avlodga bilim berib kelmoqda.

Ustoz ish uslubida o'zining no'anaviy yondashuvi bilan hamkasblaridan ajralib turadi. Xususan, dars jarayonida faqat darslikdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularda mustaqil fikr va jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Ustozning no'anaviy darslari va savol-javob uslubi bugungi kun yoshlarining o'z salohiyatiga ega, o'tmishdan saboq olib, kelajakka

mas'uliyat bilan qaraydigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

Pedagogning sa'y-harakatlari bilan maktabda tashkil etilgan "Zakovat" intellektual klubi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini boyitib kelmoqda. Shogirdlari esa tuman va viloyat miqyosidagi fan olimpiadalarida muntazam ravishda faxrli o'rinnarni egallashi ko'p yillik samarali mehnat mahsulidir.

Rashid Bo'ronov bugungi rivojlantirish davrida har bir inson o'z sohasi bo'yicha yuksak salohiyatga egaligi va o'quvchilari ham shijoat hamda g'ayratni namoyon etishiga ishonadi. Ustozning asosiy maqsadi – O'zbekistonimiz ravnaqi uchun zamon talablariga mos, bilimli va yetuk insonlarni tarbiyalashdan iborat.

Jahongir TURONOV,
Qo'shrabot tumanidagi
74-maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi



Tursunov Ikrom No‘mon o‘g‘lining 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik ixtisosligi bo‘yicha “Kungaboqar navlarini maqbul sug‘orish tartibida ko‘p o‘zgaruvchan chiziqli regressiya modeli asosida hosildorlikni baholash uslubini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko‘chasi, 225-uy, 1-bino, 239-xona.

Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Burxonova Go‘zal Muxammadiyevnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbek va rus tillarida agrar terminlarning o‘zaro tarjimasi va leksikografik talqini” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “a” mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Muxammadiyev Iskandar Axtam o‘g‘lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo‘yicha “Kam suv talabchan sementlar tarkiblarini optimal-lashtirish va ular asosidagi betonlar” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 26/26.01.2023.T.109.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko‘chasi, 70-uy.

Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz

Pardayev Zokir Elmurodovichning 05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi ixtisosligi bo‘yicha “Issiqlik elektr markazlarida issiqlik tashlamalaridan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish (Muborak issiqlik elektr markazi misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika univesiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-iyun soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Qodirova Dildora Dilshodovnaning 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo‘yicha “Qizil exinatseya (Echinacea purpurea L.) o‘simligida zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kasalliklar va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 16-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko‘chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Ermatov Abdukarim Raxmanberdiyevichning 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha “Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitlariga mos nokning nav va duragaylarini tanlash hamda istiqbolli navini yaratish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz (ixtiro patenti) asosidagi) himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.05.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 18-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy a/b. SPEvaKITI, ilmiy kengash majlislar xonasi.

Tel/faks: (78) 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Zokirova Gayhar Zokir qizining 05.09.08 – Qurilish texnologiyasi va qurilish jarayonlarini tashkil qilish ixtisosligi bo‘yicha “Ko‘kalamzorlashtirilgan modul tizimli tom qoplamalarini barpo etishda konstruktiv-texnologik imkoniyatlarni ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-02-95, 508-50-06; e-mail: devon@taqu.uz

Abduraxmanova Shoxista Abduqodir qizining 13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo‘yicha “Integrativ yondashuv asosida talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi” (Muhandislik ekologiyasi fani misolida) mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (72) 226-46-05, 226-45-47; e-mail: dgpi_info@edu.uz

Buriyev Akbar Yuldoshevichning 13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo‘yicha “Neft va gaz sohasi bo‘lajak muhandislarining amaliy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Neft va gaz kon geologiyasi fani misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (72) 226-46-05, 226-45-47; e-mail: dgpi_info@edu.uz

Muzaffarov Umurbek Umarovichning 05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha “Kimyo sanoati chiqindilaridan metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-iyun soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Xamzina Zarina Baxtiyorovnaning 17.00.02 – Musiqa san‘ati ixtisosligi bo‘yicha “Zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining opera ijodida janr yangilanish jarayonlari” mavzusidagi(san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy.

Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Radjabova Azizaxanum Farmonovnaning 14.00.21 – Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Surunkali tarqalgan parodontitning oshqozon-ichak yara kasalliklari kechishi fonida erta tashxislash va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.


Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Maxmudova Dilbar Ilxomjon qizining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo‘yicha “Suv omborlarning transformatsiyalangan kosasining morfodinamik parametrlarini hisoblash usullarini takomillashtirish (Sardoba suv ombori misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; ismiti@minwater.uz



Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika unversiteti tomonidan JURA-YEVA GULCHEXRA ZAYNITDINOVNaga Davlat attestatsiya komissiyasining 2010-yil 9-iyundagi qaroriga binoan berilgan B № 480019 raqaml BAKALAVR DIPLOMI yo‘qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi, O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim, iste‘dodli tarjimon, publitsist, ustoz murabbiy, jamoat arbobi

Ibrohim G‘AFUROVning

vafot etganligi munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a‘zolariga ta‘ziya izhor etadi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ijtimoiy fanlar fakulteti “Pedagogik ta‘lim” kafedrası professori Akbar O‘tamurodovga akasi

OLIMJON otaning

vafot etganligi munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori Xurshid Toshovga onasi

Sayyora ERGASHEVAning

vafoti munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.



Jahon chempionati – 2026:

OLG'A O'ZBEKISTON!

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur islohotlar natijasida o'zbek futbolida yangi avlod shakllandi. Dunyoga mashhur, iste'dodli futbolchilar yetishib chiqdi. Bugun yoshlarimiz dunyoning kuchli klublarida to'p surmoqda. Yoshlar terma jamoalarining xalqaro maydonlardagi muvaffaqiyatlari ham bunga yorqin misoldir.

So'nggi yillarda O'zbekistonning

U-17, U-20 va U-23 terma jamoalari Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, jahon chempionati yo'llanmalarini qo'lga kiritdi. Xususan, U-23 terma jamoasining tarixda ilk bor Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olgani mamlakatimiz futbol taraqqiyotidagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Bugun milliy terma jamoa safida porlayotgan ko'plab futbolchilar aynan

shu tizim mahsuli ekani ham e'tiborga molik. Bu yutuqlar O'zbekiston futbolining buguni bilan birga kelajagi ham ishonchli qo'llarda ekanini ko'rsatmoqda.

34 yildan beri Jahon chempionatida ishtirok etish ulkan orzu edi. Ming shukurki, biz bunga erishdik. Endi olimizda yangi orzu va maqsadlar turibdi: Jahon chempionatida munosib

ishtirok etish, kuchli terma jamoalar bilan tengma-teng kurashish, mundial tarixidagi ilk g'alabalarimizni qo'lga kiritish...

Futbolga bo'lgan e'tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan islohotlar shu sur'atda davom etsa, ishonch bilan aytish mumkinki, yangi orzularimiz bizni uzoq kuttirmaydi!

Salom mundial, olg'a O'zbekiston!

O'ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASI JCH – 2026 TARKIBI:

Otkir Yusupov
Navbahor (Namangan)Abduqodir Husanov
Manchester Siti (Angliya)Hojiakbar Alijonov
Paxtakor (Toshkent)Farrux Sayfiyev
Neftchi (Farg'ona)

FIFA

Fabio Cannavaro
(Bosh murabbiy)Rustam Ashurmatov
Istiqlol (Eron)Akmal Mozgovoy
Paxtakor (Toshkent)Otabek Shukurov
Baniyas (BAA)Jamshid Iskanderov
Neftchi (Farg'ona)Odiljon Hamrobekov
Traktor (Eron)Jaloliddin Masharipov
Istiqlol (Eron)Oston O'runov
Persepolis (Eron)Abduvohid Ne'matov
Nasaf (Qarshi)Sherzod Nasrullayev
Paxtakor (Toshkent)Eldor Shomurodov
Bashakshehir (Turkiya)Umarbek Eshmurodov
Nasaf (Qarshi)Botirali Ergashev
Neftchi (Farg'ona)Dostonbek Hamdamov
Paxtakor (Toshkent)Abdulla Abdullayev
Dibba (BAA)Azizjon G'aniyev
Al-Bateh (BAA)Azizbek Amonov
Dinamo (Samarqand)Igor Sergeyev
Persepolis (Eron)Abbosbek Fayzullayev
Bashakshehir (Turkiya)Sherzod Esanov
Buxoro (Buxoro)Behruzjon Karimov
Surxon (Termiz)Avazbek O'limasaliyev
OKMK (Toshkent)Jahongir O'rozov
Dinamo (Samarqand)

FIFA hakami Ilgiz Tantashev jamoasi bilan birgalikda (Andrey Sapenko va Timur Gaynullin) Jahon chempionatida ilk bor faoliyat olib boradi.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6036. Tiraji-6440.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Marifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

t – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

